Job Arranger Lite bir nechta ilavalar tomonidan yaratilgan bir qancha fayllarni birlashtirish va ularni bitta chop qilish ishi sifatida chop qilishga imkon beradi. Birlashtirilgan fayllar uchun joylashish ko'p sahifali qolip va 2 tomonlama chop qilish kabi chop qilish parametrlarini ko'rsatish mumkin.



1. Printer drayveridagi **Asosiy** panelida **Job Arranger Lite**-ni tanlang.
2. **Chop qilish**-ni cherting.
Chop qilish boshlanganida Job Arranger Lite oynasi namoyish qilinadi.
3. Job Arranger Lite oynasi ochilgan holda joriy fayl bilan birlashtirmoqchi bo'lgan faylni oching va keyin yuqoridagi qadamlarni takrorlang.
4. Siz oynadagi Job Arranger Lite Lite Loyihani chop etish-ga qo'shilgan chop qilish ishini tanlaganingizda sahifa qolipini tahrirlashingiz mumkin.
5. Chop qilishni boshlash uchun **Fayl** dagi **Chop etish**-ni cherting.

Eslatma:

Agar barcha chop qilish ma'lumotlarini Loyihani chop etish-ga qo'shishdan avval Job Arranger Lite-ni yopsangiz, siz hozirda ishlayotgan chop qilish ishi bekor qilinadi. Joriy ishni saqlash uchun **Fayl** menyusidagi **Saqlash**-ni cherting. Saqlangan fayllarning kengaytmasi ".ecl" bo'ladi.


Print Projectni ochish uchun Job Arranger Lite Windowni ochish maqsadida printer drayveridagi **Texnik xizmat** panelida **Job Arranger Lite**-ni cherting. Keyin faylni tanlash uchun **Ochish** menyusidagi **Fayl**-ni tanlang.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
- ➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 64-sahifada

Rangli universal chop qilish xususiyatidan foydalanib chop qilish

Chop qilingan materiallardagi matnlar va tasvirlarning ko'rinuvchanligini yaxshilashingiz mumkin.



Rangli universal bosma -dan foydalanish uchun quyidagi sozlamalar tanlangan bo'lishi lozim.

- ☐ Qog'oz turi: Bo'sh qog'oz, Letterhead
 - ☐ Sifat: **Standart** yoki balandroq sifat
 - ☐ Chop qilish rangi: **Rangli**
 - ☐ Ilovalar: Microsoft® Office 2007 yoki keyingi versiyalari
 - ☐ Matn o'lchami: 96 pts yoki kichikroq
1. Printer drayverining **Ko'proq tanlamalar** panelidagi **Tasvir tanlamalari** sozlamasidagi **Rangni to'g'rilash**-ni bosing.
 2. **Rangli universal bosma** sozlamasidan birorta variantni tanlang.
 3. Ko'proq sozlamalarni kiritish uchun **Bo'rttirish tanlamalari** tugmasini bosing.
 4. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnatish va keyin **OK**-ni cherting.
 5. **Chop qilish**-ni cherting.

Eslatma:


- ☐ Ma'lum belgilar namunalar bilan o'zgartirilishi mumkin, masalan, "+" "±" kabi ko'rinishi mumkin.
- ☐ Ilovaga xos bo'lgan namunalar va tag chiziqlar ushbu sozlamalardan foydalanib chop qilingan kontentni o'zgartirishi mumkin.
- ☐ Rangli universal bosma sozlamalaridan foydalanilganda fotosuratlar va boshqa tasvirlarda chop qilish sifati yomonlashishi mumkin.
- ☐ Rangli universal bosma sozlamalaridan foydalanilganda chop qilish sekinroq bo'ladi.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ ["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada
- ➔ ["Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish"](#) - 64-sahifada

Chop qilish rangini sozlash

Chop qilishda foydalaniladigan ranglarni sozlash mumkin. Ushu sozlashlar asl ma'lumotlarga nisbatan qo'llanilmaydi.



PhotoEnhance asl tasvir ma'lumotlaridagi kontrast, to'yinganlik va ravshanlikni avtomatik sozlash orqali tiniqroq tasvirlar hamda yorqinroq ranglar hosil qiladi.

Eslatma:

PhotoEnhance buyumning joylashgan joyini tahlil qilish orqali rangni sozlaydi. Shuning uchun agar tasvirni kichraytirish, kattalashtirish, qirqish yoki aylantirish orqali buyumning joylashgan joyi o'zgartirilgan bo'lsa, rang kutilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Chegarasiz parametrlarni tanlash ham buyum joylashgan joyini o'zgartiradi va bu rangdagi o'zgarishlarga olib keladi. Agar tasvir fokusdan tashqarida bo'lsa, tasvir notabiiy bo'lishi mumkin. Agar rang o'zgargan yoki notabiiy bo'lsa, **PhotoEnhance** rejimidan boshqa rejimda chop qiling.


1. Printer drayverining **Ko'proq tanlamalar** panelida, **Rangni to'g'rilash** sozlamasidan rangni to'g'rilash usulini tanlang.
 - ☐ Avtomatik: bu sozlama tusni qog'oz turi va chop etish sifati parametrlariga muvofiq tarzda sozlaydi.
 - ☐ Noodatiy: **Qo'shimcha** bandini bosing, o'z sozlamalaringizni o'rnatishingiz mumkin.
2. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnatish va keyin **OK**-ni cherting.
3. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
- ➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 64-sahifada

Ingichka chiziqlarga urg'u bergan holda chop qilish

Chop qilish uchun haddan tashqari ingichka bo'lgan chiziqlarni yo'g'onlashtirishingiz mumkin.



1. Printer drayverining **Ko'proq tanlamalar** panelidagi **Tasvir tanlamalari** sozlamasidagi **Rangni to'g'rilash**-ni bosing.
2. **Ingichka chiziqlarni bo'rttirib ko'rsat**-ni tanlang.


3. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnatish va keyin **OK**-ni cherting.
4. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
- ➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 64-sahifada

Toza shtrix-kodlarini chop qilish

Siz shtrix-kodlarini toza holda chop qilishingiz va uni skanerlashni osonlashtirishingiz mumkin. Bu xususiyatni faqatgina o'zingiz chop qilgan shtrix-kodni skanerlab bo'lmaganda yoqing.



Bu xususiyatdan quyidagi hollarda foydalanishingiz mumkin.

- ☐ Qog'oz turi: Bo'sh qog'oz, Letterhead, yoki Konvert
- ☐ Sifat: **Standart**

1. Printer drayverining **Texnik xizmat** bandida, **Kengaytirilgan sozlamalar** tugmasini bosish va so'ngra **Shtrix-kod rejimi** bandini tanlash.
2. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnatish va keyin **OK**-ni cherting.
3. **Chop qilish**-ni cherting.

Eslatma:


Holatlarga bog'liq ravishda har doim ham susaytirib bo'lmayligi mumkin.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
- ➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 64-sahifada

Kompyuterdan chop qilish — Mac OS

Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish




Eslatma:

Amallar va ekranlar dasturga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

1. Printerga qog'oz soling.
"Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. Chop qilish dialogiga kirish uchun **Fayl** menyusidan **Chop qilish**-ni yoki boshqa buyruqni tanlang.
Zarur bo'lgan hollarda chop qilish oynasini kengaytirish uchun **Tafsilotlarni ko'rsatish**-ga yoki ▼-ga cherting.
4. Printerni tanlang.

5. Suzib chiquvchi menyudan **Chop etish sozlamalari**-ni tanlang.



6. Zarur bo'lgan hollarda sozlamalarni o'zgartiring.


7. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma'lumotlar

➔ ["Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'irlar"](#) - 266-sahifada

Osongina chop etish uchun printerni avvaldan o'rnatilgan qiymatlarni qo'shish

Agar siz printer drayverida chop qilishning ko'p foydalaniladigan parametrlarining avvaldan o'rnatilgan qiymatlarini yaratsangiz, ro'yxatdan avvaldan o'rnatilgan qiymatlarni tanlash orqali osongina chop qilishingiz mumkin.



1. **Chop etish sozlamalari** va **Qolip** (**Qog'oz o'lchami**, **Media Type** kabi har bir elementni o'rnatish, va shu singari).
2. Joriy sozlamalarni avvaldan o'rnatilgan qiymat sifatida saqlang uchun **Avvaldan o'rnatilgan parametrlar**-ni cherting.
3. **OK** tugmasini cherting.

Eslatma:

*Qo'shilgan andozani o'chirish uchun **Avvaldan o'rnatilgan parametrlar** > **Avvaldan o'rnatilgan parametrlar ko'rsatish** ustiga bosing, ro'yxatdan o'chirishni xohlagan andozangizni tanlang va so'ngra uni o'chiring.*

4. **Chop qilish**-ni cherting.


Kelgusi safar aynan shu sozlamalardan foydalanib chop qilmoqchi bo'lsangiz, **Avvaldan o'rnatilgan parametrlar** dan ro'yxatga olingan sozlash nomini tanlang.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ ["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada
- ➔ ["Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish"](#) - 84-sahifada

2 tomonlama chop etish

Qog'ozning har ikkala tomoniga chop qilishingiz mumkin.



Eslatma:

- ☐ *Bu xususiyatdan hoshiyasiz chop qilishda foydalanib bo'lmaydi.*
- ☐ *Agar siz 2 tomonlama chop qilishga mos bo'lmagan qog'ozdan foydallansangiz, chop qilish sifati pasayishi va qog'ozning tiqilib qolishi yuz berishi mumkin.*

["2 tomonlama chop qilish uchun qog'oz"](#) - 270-sahifada

- ☐ *Qog'oz va ma'lumotlarga bog'liq ravishda siyoh qog'ozning boshqa tomonidan oqib ketishi mumkin.*

1. Suzib chiquvchi menyudan **Two-sided Printing Settings**-ni tanlang.
2. **Two-sided Printing** bandidagi muqovalashlarni tanlang.

3. **Document Type** bandidan asl hujjat turini tanlang.

Eslatma:

❑ **Document Type** parametriga qarab chop qilish tezligi pastroq bo'lishi mumkin.

❑ Agar ma'lumotlari zich joylashgan rasm yoki grafiklarni chop qilayotgan bo'lsangiz, **Document Type** parametri sifatida **Foto bilan matn** yoki **Photo** bandini tanlang. Agar bosma tirnalsa yoki tasvir orqa tomonga oqib ketsa, **Adjustments** yonidagi strelkani bosish orqali bosma zichligi va siyohning qurish vaqtini o'zgartiring.

4. Zarur bo'lgan hollarda boshqa narsalarni o'rning.

5. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma'lumotlar


➔ "Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar" - 266-sahifada

➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada

➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 84-sahifada

Bir nechta sahifani bitta varaqqa chop etish

Ma'lumotlarning bir nechta sahifasini bitta qog'oz varag'iga chop qilish mumkin.



1. Suzib chiquvchi menudan **Qolip**-ni tanlang.

2. **Varaqdagi sahifalar soni**-da sahifalar soni, **Qolip yo'nalishi** (sahifalar tartibi), va **Hoshiya**-ni o'rning.

3. Zarur bo'lgan hollarda boshqa narsalarni o'rning.

4. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma'lumotlar

➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada

➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 84-sahifada

Qog'oz o'lchamiga moslash bilan chop qilish

O'zingiz printeriga yuklagan qog'oz o'lchamini Mo'ljallangan qog'oz o'lchami parametri sifatida tanlang.



1. O'zingiz dasturda o'rnatgan qog'oz o'lchamini **Qog'oz o'lchami** parametri sifatida tanlang.
2. Suzib chiquvchi menudan **Qog'oz bilan muomala qilish**-ni tanlang.
3. **Qog'oz o'lchamiga moslash uchun masshtablash**-ni tanlang.
4. O'zingiz printeriga yuklagan qog'oz o'lchamini **Mo'ljallangan qog'oz o'lchami** parametri sifatida tanlang.
5. Zarur bo'lgan hollarda boshqa narsalarni o'rnatang.
6. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
- ➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 84-sahifada

Kichiklashtirilgan yoki kattalashtirilgan hujjatni har qanday kattalikda chop qilish

Hujjatni ma'lum foizga kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin.



Eslatma:

Ishlashi dasturga bog'liq ravishda farq qiladi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.


1. Quyidagilardan birini bajaring.
 - ☐ **Fayl** menyusidan **Chop etish** bandini tanlang. **Sahifani o'rnatish** ni bosing va keyin **Quyidagi uchun format** da printeringizni tanlang. **Qog'oz o'lchami** dan chop qilinuvchi ma'lumotlar o'lchamini tanlang, **Masshtab** da foizni kiriting va keyin **OK** tugmasini bosing.
 - ☐ Ilovaning **Fayl** menyusidan **Qog'ozni sozlash** qatorini tanlang. **Quyidagi uchun format** da printeringizni tanlang. **Qog'oz o'lchami** dan chop qilinuvchi ma'lumotlar o'lchamini tanlang, **Masshtab** da foizni kiriting va keyin **OK** tugmasini bosing. **Fayl** menyusidan **Chop qilish**-ni tanlang.
2. **Printer** da printeringizni tanlang.
3. Zarur bo'lgan hollarda boshqa narsalarni o'rning.
4. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma'lumotlar

- ➔ "Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
- ➔ "Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish" - 84-sahifada

Chop qilish rangini sozlash

Chop qilishda foydalaniladigan ranglarni sozlash mumkin. Ushu sozlashlar asl ma'lumotlarga nisbatan qo'llanilmaydi.



PhotoEnhance asl tasvir ma'lumotlaridagi kontrast, to'yinganlik va ravshanlikni avtomatik sozlash orqali tiniqroq tasvirlar hamda yorqinroq ranglar hosil qiladi.

Eslatma:

PhotoEnhance buyumning joylashgan joyini tahlil qilish orqali rangni sozlaydi. Shuning uchun agar tasvirni kichraytirish, kattalashtirish, qirqish yoki aylantirish orqali buyumning joylashgan joyi o'zgartirilgan bo'lsa, rang kutilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Chegarasiz parametrlarni tanlash ham buyum joylashgan joyini o'zgartiradi va bu rangdagi o'zgarishlarga olib keladi. Agar tasvir fokusdan tashqarida bo'lsa, tasvir notabiiy bo'lishi mumkin. Agar rang o'zgargan yoki notabiiy bo'lsa, **PhotoEnhance** rejimidan boshqa rejimda chop qiling.

1. Suzib chiquvchi menyudan **Ranglarni moslash** buyrug'ini tanlang va keyin **EPSON Color Controls** buyrug'ini tanlang.
2. Suzib chiquvchi menyudan **Chop etish sozlamalari**-ni tanlang.
3. **Basic** panelida, **Color Settings** dan rang tuzatish turini tanlang.
4. **Advanced Color Settings** panelini tanlang va mos sozlamalarni o'rnatishni bajaring.
5. Zarur bo'lgan hollarda boshqa narsalarni o'rnatish.
6. **Chop qilish**-ni cherting.


Aloqador ma'lumotlar

➔ ["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada

➔ ["Oson sozlamalardan foydalanib chop qilish"](#) - 84-sahifada

Smart qurilmalardan chop qilish (iOS)

Siz smartfon yoki planshet kabi smart qurilmadan hujjatlarni chop qilishingiz mumkin.



Epson Smart Panel-dan foydalanib hujjatlarni chop qilish


Eslatma:

Ishlashi qurilmaga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

1. Printerga qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)
2. Printeringizni simsiz chop qilish uchun sozlang.
3. Agar Epson Smart Panel o'rnatilmagan bo'lsa, o'rning.
["Smart qurilmadan printerni osongina boshqarish uchun ilova \(Epson Smart Panel\)" - 276-sahifada](#)
4. Aqlli qurilmangizni printeringiz ulangan ayni simsiz tarmoqqa ulang.
5. Epson Smart Panel-ni ishga tushiring.
6. Bosh ekranda chop qilish hujjati menyusini tanlang.
7. Chop etiladigan hujjatni tanlang.
8. Chop qilishni boshlang.

AirPrint-dan foydalanib hujjatlarni chop qilish

AirPrint drayverlarni o'rnatish yoki dasturiy ta'minotni yuklash zaruratisiz iPhone, iPad, iPod touch, va Mac orqali tezkor simsiz chop qilish funksiyasini yoqadi.



Eslatma:

Agar siz printeringizning boshqaruv panelida qog'oz konfiguratsiyasi xabarlarini o'chirib qo'ygan bo'lsangiz, AirPrint dan foydalana olmaysiz. Zarur bo'lgan hollarda xabarlarni yoqib qo'yish uchun quyidagi havolaga qarang.

1. Printerga qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)
2. Printeringizni simsiz chop qilish uchun sozlang. Quyidagi havolaga qarang.
<http://epson.sn>
3. Apple qurilmasini printeringiz foydalanayotgan simsiz tarmoqqa ulang.
4. Qurilmangizdan printerga chop qiling.

Eslatma:


Batafsil ma'lumotlar olish uchun Apple veb-saytidagi AirPrint sahifasiga qarang.

Aloqador ma'lumotlar

➔ ["Garchi ulanish to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa ham chop qilib bo'lmayapti \(iOS\)"](#) - 188-sahifada

Smart qurilmalardan chop qilish (Android)

Siz smartfon yoki planshet kabi smart qurilmadan hujjatlarni chop qilishingiz mumkin.



Epson Smart Panel-dan foydalanib hujjatlarni chop qilish

Eslatma:

Ishlashi qurilmaga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

1. Printerга qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada
2. Printeringizni simsiz chop qilish uchun sozlang.
3. Agar Epson Smart Panel o'rnatilmagan bo'lsa, o'rning.
["Smart qurilmadan printerni osongina boshqarish uchun ilova \(Epson Smart Panel\)"](#) - 276-sahifada
4. Aqlli qurilmangizni printeringiz ulangan ayni simsiz tarmoqqa ulang.
5. Epson Smart Panel-ni ishga tushiring.
6. Bosh ekranda chop qilish hujjati menyusini tanlang.
7. Chop etiladigan hujjatni tanlang.
8. Chop qilishni boshlang.

Epson Print Enablerdan foydalanib hujjatlarni chop qilish

Siz shundaygina Android telefon yoki planshetingizdagi (Android v 4.4 yoki keyingi versiyalari) hujjatlar, elektron xatlar, fotosuratlar va veb-sahifalaringizni simsiz chop qilishingiz mumkin. Bir necha teginishlardan so'ng Android qurilmangiz ayni simsiz tarmoqqa ulangan Epson printerni topadi.

Eslatma:

Ishlashi qurilmaga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

1. Printerга qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada
2. Printeringizni simsiz chop qilish uchun sozlang.

3. Android qurilmangizda Google Play-dan Epson Print Enablerni plug-in dasturini o'rnating.
4. Android qurilmangizni printeringiz ulangan ayni simsiz tarmoqqa ulang.
5. Android qurilmangizdagi **Sozlamalar**-ga o'tib, **Chop qilish**-ni tanlang, va keyin Epson Print Enablerni yoqing.
6. Android qurilmangizdan Chrome kabi ilovada menyu piktogrammasini bosing va ekrandagi narsani chop qiling.

Eslatma:

Agar printeringiz ko'rinmayotgan bo'lsa, **Barcha printerlar** bandiga bosib, printeringizni tanlang.

Mopria Print Service yordamida chop qilish

Mopria Print Service Android smartfonlari yoki planshetlaridan darhol simsiz chop qilishga imkon beradi.



1. Google Play xizmatidan Mopria Print Service ilovasini o'rnating.
2. Printeriga qog'oz soling.
3. Printeringizni simsiz chop qilish uchun sozlang. Quyidagi havolaga qarang.
<http://epson.sn>
4. Android qurilmasini printeringiz foydalanayotgan simsiz tarmoqqa ulang.
5. Qurilmangizdan printeriga chop qiling.

Eslatma:

Batafsil ma'lumotlar olish uchun <https://mopria.org> manzili bo'yicha Mopria veb-saytiga tashrif buyuring.

CD/DVD yorliqqa chop qilish

CD/DVD yorliqqa rasmlar chop qilish



CD/DVD yorliqqa chop qilish uchun xotira qurilmasida saqlangan rasmlarni tanlashingiz mumkin.



Muhim:

- ❑ CD/DVD ga chop qilishdan avval CD/DVD bilan muomala qilishdagi ehtiyot choralariga qarang.
- ❑ Printer ishlayotgan holda CD/DVD lotogini kiritmang. Bu printerni shikastlashi mumkin.

1. Printerning SD karta uyasiga yoki tashqi interfeys USB portiga xotira qurilmasini qo'ying.

["Xotira kartasini solish va olib qo'yish"](#) - 46-sahifada

["Tashqi USB qurilmasini solish va chiqarib olish"](#) - 46-sahifada

2. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
3. **CD/DVD ga nusxalash > CD/DVD ustiga chop etishni** tanlang.
4. Joylashuvni tanlang.

CD/DVD 1 ta, CD/DVD 4 ta va **CD/DVD turfaligi** qurilmalaridan foydalanish mumkin.

Eslatma:

- ❑ Tashqi va ichki diametrlarni o'zgartirganingizda ekranning yuqori o'ng qismidagi  ni tanlang va keyin

CD Ichki/Tashqi ni tanlang.   bandlardan foydalangan holda tashqi va ichki diametrlarni o'rnatish va so'ngra **OK** tugmasini tanlang. Shuningdek, hoshiyadagi qiymatni bosgan va bunda ekrandagi tugmachalardan foydalangan holda diametrni o'rnatishingiz mumkin.

Tashqi diametr uchun 114 mm dan 120 mm gacha va ichki diametr uchun 18 mm dan 46 mm gacha bo'lgan qiymatni 1 mm orttirishlar bilan belgilashingiz mumkin.

- ❑ Disk yorlig'i chop qilinganidan keyin siz o'rnatgan ichki va tashqi diametr sukut bo'yicha qiymatlariga qayta tiklanadi. Sukut bo'yicha qiymatlarni **Sozlamalar > Printer sozlamalari > CD Ichki/Tashqi**-da o'zgartirishingiz mumkin.

5. Rasmlarni yuklash yakunlangani haqidagi xabar ko'rsatilgandan so'ng **OK** tugmasini tanlang.
6. Quyidagilardan birini bajaring.

- ❑ **CD/DVD 1 ta:**  -ni tanlang, fotosuratni tanlang va keyin **Tayyor** ni bosing. **Keyingisi** tugmasini tanlang va so'ngra 9-bosqichga o'ting.

- ❑ **CD/DVD 4 ta:** keyingi qadamga o'ting.

- ❑ **CD/DVD turfaligi:** solinishi mumkin bo'lgan rasmlar soni 0 taga yetgunicha rasmlarni tanlang. **Keyingisi** tugmasini tanlang va so'ngra 9-bosqichga o'ting.

7.  ni tanlang, rasmni tanlash ekranida chop qilmoqchi bo'lgan rasmni tanlang va so'ngra **Tayyor** ni tanlang.

Zarur bo'lgan hollarda fotosuratlarini tahrirlash uchun **Bitta** ni tanlang va keyin  ni tanlang.

["Rasmlarni tahrirlash uchun menyu parametrlari"](#) - 57-sahifada

8. Barcha rasmlar joylashguniga qadar 7-qadamni takrorlang va so'ngra **Keyingisi** bandiga tegining.
9. **CD/DVD** panelidagi **Asosiy sozlamalar**-ni tanlang.

["Qog'oz va chop qilish sozlamalari uchun menyu parametrlari"](#) - 56-sahifada

Eslatma:

Chop qilishni tekshirib olish uchun **sinab ko'rish sifatida** bandini tanlang va oddiy A4 formatdagi qog'ozni 2-qog'oz kassetasi qurilmasiga soling. CD/DVD yorliqqa chop qilishdan avval tasvirni chop qilib, tekshirib ko'rishingiz mumkin.


["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada

10. **Yo'l-yo'riq** ni tanlang va ko'rsatmalarga amal qilgan holda CD/DVD diskni soling.



Muhim:

CD/DVD ni CD/DVD lotogiga chop qilinadigan tomonini yuqoriga qilgan holda soling. CD/DVD tokchasiga avaylab qo'yish uchun CD/DVD'ning markazini bosing. Aks holda, CD/DVD tokchasidan tushib ketishi mumkin. CD/DVD tokchaga mustahkam o'rnanishini tekshirish uchun u tokchani aylantirib ko'ring.



Eslatma:

Tokchani printeriga solayotganingizda ozroq tebranish sezishingiz mumkin. Bu odatiy hol va siz uni gorizontal tarzda qo'yishda davom etishingiz zarur.

11. **Qo'shimcha sozlamalar** bandini tanlang va so'ngra zaruriy sozlamalarni o'zgartiring.
12. **Asosiy sozlamalar** panelini tanlang va keyin ga teging.
13. Chop etish yakunlangandan so'ng, CD/DVD lotogi tashqariga chiqadi. Tokchani printerdan chiqarib oling va so'ngra **Chop etish tugallandi** tugmasini tanlang.



Muhim:

Chop qilish yakunlangandan so'ng, CD/DVD tokchasini chiqarganingizga ishonch hosil qiling. Agar tokchani chiqarmasangiz va printerni o'chirsangiz yoki-yoqsangiz yoki kallakni tozlashga buyruq bersangiz, CD/DVD tokcha chop qilish kallagi bilan to'qnashishi va printerning buzilishiga olib kelishi mumkin.

14. CD/DVD'ni chiqarib oling va CD/DVD tokchasini 2-qog'oz kassetasi tagiga qo'ying.

Kompakt disk qutisi muqovasiga rasmlarni chop qilish

Siz xotira qurilmangizdagi rasmlardan foydalangan holda, kompakt disk qutisi muqovasiga rasmlarni chop qilishingiz mumkin. Muqovani A4 o'lchamdagi qog'ozga chop qiling va so'ngra uni kompakt diskka moslab qirqing.



1. Printerga qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)
2. Printerning SD karta uyasiga yoki tashqi interfeys USB portiga xotira qurilmasini qo'ying.
["Xotira kartasini solish va olib qo'yish" - 46-sahifada](#)
["Tashqi USB qurilmasini solish va chiqarib olish" - 46-sahifada](#)
3. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
4. **CD/DVD ga nusxalash > Disk konvertiga chop etish**ni tanlang.
5. Joylashuvni tanlang.
6. Rasmlarni yuklash yakunlangani haqidagi xabar ko'rsatilgandan so'ng **OK** tugmasini tanlang.
7. Quyidagilardan birini bajaring.
 - ☐ 5-bosqichda **Tosh yuqori**-ni tanlaganingizda: -ni tanlang, fotosuratni tanlash ekranida bitta fotosuratni tanlang va keyin **Tayyor** -ni tanlang. **Keyingisi**-ni tanlang.
 - ☐ 5-bosqichda **Tosh indeksi**-ni tanlaganingizda: Fotosuratlarni nomerini 0 ga kelguncha tanlang, va keyin **Keyingisi**-ni tanlang.

Zarur bo'lgan hollarda fotosuratlarni tahrirlash uchun **Bitta** ni tanlang va keyin  ni tanlang.
["Rasmlarni tahrirlash uchun menyu parametrlari" - 57-sahifada](#)
8. **Asosiy sozlamalar** panelida parametrlarni belgilang.
["Qog'oz va chop qilish sozlamalari uchun menyu parametrlari" - 56-sahifada](#)
9. **Qo'shimcha sozlamalar** bandini tanlang va so'ngra zaruriy sozlamalarni o'zgartiring.
10. **Asosiy sozlamalar** panelini tanlang va keyin ga teging.

Epson Photo+ dan foydalanib CD/DVD yorliqqa rasmlar chop qilish

Epson Photo+ fotosuratlarini fotoqog'ozga yoki CD/DVD yorliqlariga turli qoliplarda osongina va yuqori sifat bilan chop qilishga imkon beradi (CD/DVD yorliqqa chop qilish faqat ayrim modellarda qo'llab-quvvatlanadi.). Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Veb-sahifalarni chop qilish

Veb-sahifalarni kompyuterdan chop qilish

Epson Photo+ veb-sahifalarni ko'rsatish, ko'rsatilgan sohani qirqib olish va keyin ularni tahrirlash va chop qilishga imkon beradi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Aqlli qurilmalardan veb-saytlarni chop qilish

Eslatma:

Ishlashi qurilmaga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

1. Printeriga qog'oz soling.
"Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
2. Printeringizni simsiz chop qilish uchun sozlang.
3. Agar Epson Smart Panel o'rnatilmagan bo'lsa, o'rning.
"Smart qurilmadan printerni osongina boshqarish uchun ilova (Epson Smart Panel)" - 276-sahifada
4. Aqlli qurilmangizni printeringiz ulangan ayni simsiz tarmoqqa ulang.
5. Chop qilmoqchi bo'lgan veb sahifani veb brauzer ilovasida oching.
6. Veb brauzer ilovasining menyusidan **Baham ko'rish** ni bosing.
7. **Smart Panel** ni tanlang.
8. **Chop qilish** ni bosing.

Turli narsalarni chop qilish

Naqshli qog'ozga chop qilish (bezak qog'ozi)

Printeriga saqlangan turli-tuman namunalar, masalan, hoshiyalar va polka nuqtalardan foydalanib turlicha dizayn qog'ozini chop qilishingiz mumkin. Siz xotira qurilmangizdagi fotosurat asl namunalarini chop qilishingiz mumkin. Bu qog'ozdan turlicha usullarda, masalan, uyda yaratiladigan kitob muqovalari,

o'rov qog'ozi kabilarni yaratish kabilar uchun foydalanishga imkon beradi. O'z buyumlaringizni qanday qilib yaratish to'g'risida batafsil ma'lumotlar olish uchun quyidagi veb-saytga tashrif buyuring.

<http://epson.sn>



Eslatma:

Epson Creative Print turli naqshli bezak qog'ozini chop qilishga imkon beradi.

"Turli xil fotosuratlarini chop qilishlardan rohatlanish uchun ilova (Epson Creative Print)" - 277-sahifada

1. Printeriga qog'oz soling.
"Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
2. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
3. **Shaxsiy shakllar** > **Chizmachilik qog'ozini** tanlang.
4. Quyidagilardan birini bajaring.
 - ☐ Printeriga joylashtirilgan namunalardan foydalanish uchun chegaralar yoki polka no'qtalari kabi namunalarni tanlang.
 - ☐ Xotira qurilmasida joylashtirilgan fotosuratlardan foydalanish uchun, **Asl dizayn**-ni tanlang, va keyin xotira qurilmasini soling. Yangi namuna yaratish uchun, **Yaratmoq**-ni tanlang, a keyin fotosuratni tanlash va saqlash uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.
"Xotira kartasini solish va olib qo'yish" - 46-sahifada
"Tashqi USB qurilmasini solish va chiqarib olish" - 46-sahifada
5. Qog'oz sozlamalarni o'rnatish.
6. Chop qilinadigan nusxalar sonini kiriting va so'ngra  bandiga tegining.

Yo'l-yo'l qog'oz chop qilish

Siz yo'l-yo'l qog'oz, millimetrli qog'oz yoki nota qog'ozlarining ba'zi turlarini chop qilishingiz, o'zingiz xohlagandek, asl daftarcha yoki alohida varaqli bloknот yaratishingiz mumkin.



1. Printerга qog'oz soling.
"Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
2. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
3. **Shaxsiy shakllar** > **Millimetrli qog'ozni** tanlang.
4. Chiziqli qog'oz turini tanlang.
5. Qog'oz sozlamalarni o'rning.
6. Chop qilinadigan nusxalar sonini kiriting va so'ngra  bandiga teging.

Yozuv qo'gozini chop qilish

Siz xotira qurilmangizdagi fon sifatida o'rnatilgan rasmlardan foydalanib asl yozuv qog'ozlarini osongina chop qilishingiz mumkin. Uning ustiga osongina yozish mumkin bo'lishi uchun foto yengil chop qilinadi.



1. Printerга qog'oz soling.
"Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
2. Printring SD karta uyasiga yoki tashqi interfeys USB portiga xotira qurilmasini qo'ying.
"Xotira kartasini solish va olib qo'yish" - 46-sahifada
"Tashqi USB qurilmasini solish va chiqarib olish" - 46-sahifada
3. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.

4. **Shaxsiy shakllar > Pochta qog'ozini** tanlang.

5. Yozuv qog'ozini turini tanlang.

6. Fonni tanlang.

Yozuv qog'ozining turiga qarab opsiyalar faqlanadi.

7. O'zingiz 6-bosqichda tanlagan orqa fonga ko'ra quyidagilardan birini bajaring.

Orqa fon turiga qarab opsiyalar farqlanadi.

☐ Dizayn

Chegaralar yoki polka no'qtalari, yoki **Asl dizayn** kabi namunani tanlang, va keyin qog'ozni bezaklash funksiyasidan foydalanib yaratgan namunangizni tanlang.

☐ Rasm

Rasmlarni yuklash yakunlangani haqidagi xabar ko'rsatilgandan so'ng **OK** tugmasini tanlang.  ni tanlang, rasmni tanlash ekranida chop qilmoqchi bo'lgan rasmni tanlang va so'ngra **Tayyor** ni tanlang. **Keyingisi**-ni tanlang.

☐ Rang

Orqa fon rangini tanlang.

☐ Fonsiz


Keyingi qadamga o'ting.

8. Qog'oz sozlamalarni o'rnatish.

9. Chop qilinadigan nusxalar sonini kiriting va so'ngra bandiga tegining.

Jadvalni chop qilish

Siz Oylik, Haftalik, yoki Kunlik jadvallarni osongina chop qilishingiz mumkin.



9 MAR						20XX	
1	2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31	

1. Printerga qog'oz soling.

["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada

2. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.

3. **Shaxsiy shakllar > Jadvalni** tanlang.

4. Jadval turini tanlang.

5. Siz **Oylik** yoki **Kunlik** bandini tanlaganingizda, sanani belgilang va **OK** tugmasini tanlang.

6. Qog'oz sozlamalarni o'rnatish.

7. Chop qilinadigan nusxalar sonini kiriting va so'ngra  bandiga tegining.

Rasmlil asl kalendarlarni chop qilish

Siz xotira qurilmangizdagi rasmlardan foydalanib asl kalendarlarni osongina chop qilishingiz mumkin.



1. Printerqa qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada
2. Printring SD karta uyasiga yoki tashqi interfeys USB portiga xotira qurilmasini qo'ying.
["Xotira kartasini solish va olib qo'yish"](#) - 46-sahifada
["Tashqi USB qurilmasini solish va chiqarib olish"](#) - 46-sahifada
3. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
4. **Shaxsiy shakllar** > **Taqvimni** tanlang.
5. Kalendar turini tanlang.
6. Yil va oyni belgilang, so'ngra **OK** tugmasini tanlang.
7. Rasmlarni yuklash yakunlangani haqidagi xabar ko'rsatilgandan so'ng **OK** tugmasini tanlang.
8. -ni tanlang.
9. Rasmni tanlash ekranida chop qilmoqchi bo'lgan rasmni tanlang va so'ngra **Tayyor** ni tanlang.
Zarur bo'lgan hollarda fotosuratlarini tahrirlash uchun **Bitta** ni tanlang va keyin  ni tanlang.
["Rasmlarni tahrirlash uchun menyu parametrlari"](#) - 57-sahifada
10. **Keyingisi**-ni tanlang.
11. Chop qilinadigan nusxalar sonini kiriting va so'ngra  bandiga tegining.

Xabar kartasini chop qilish

Siz xotira qurilmangizdagi rasmlardan foydalanib asl xabar otkritkalarini osongina chop qilishingiz mumkin.



1. Printerga qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)
2. Printer SD karta uyasiga yoki tashqi interfeys USB portiga xotira qurilmasini qo'ying.
["Xotira kartasini solish va olib qo'yish" - 46-sahifada](#)
["Tashqi USB qurilmasini solish va chiqarib olish" - 46-sahifada](#)
3. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
4. **Shaxsiy shakllar** > **Xabar kartasini** tanlang.
5. Tasvir o'rnini tanlang.
To'g'ri chiziqlar turi va rangini o'zgartirish uchun yuqori-o'ngdagi -ni tanlang.
6. Joylashtiriladigan tasvirni tanlang.
 - ☐ Dizayn: namunani tanlang va so'ngra 11-bosqichga o'ting.
 - ☐ Rasm: keyingi qadamga o'ting.
7. Rasmlarni yuklash yakunlangani haqidagi xabar ko'rsatilgandan so'ng **OK** tugmasini tanlang.
8. -ni tanlang.
9. Rasmni tanlash ekranida chop qilmoqchi bo'lgan rasmni tanlang va so'ngra **Tayyor** ni tanlang.
Zarur bo'lgan hollarda fotosuratlarini tahrirlash uchun **Bitta** ni tanlang va keyin  ni tanlang.
["Rasmlarni tahrirlash uchun menyu parametrlari" - 57-sahifada](#)
10. **Keyingisi**-ni tanlang.
11. Chop qilinadigan nusxalar sonini kiriting va so'ngra  bandiga tegining.

Fotosuratlardan foydalanib rangli kitob chop qilish

Siz rasm va tasvirlarning faqat konturini olgan holda rasmlarni chop qilishingiz mumkin. Bu sizga o'ziga xos rasmi bo'yaladigan kitoblarni yaratish imkonini beradi.



Eslatma:

Agar ular shaxsiy foydalanish maqsadida (uyda yoki boshqa yopiq hududlarda) bo'lmasa, rasmi bo'yaladigan kitoblarni yaratishda mualliflik huquqlari bilan himoyalangan asl rasm egalaridan ruxsat olishingiz kerak bo'ladi.

1. Printerga qog'oz soling.

["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada

2. Xotira qurilmasidagi rasmdan foydalanmoqchi bo'lsangiz, SD-kartasi slotiga yoki tashqi interfeys USB portiga xotira qurilmasini qo'ying.

["Xotira kartasini solish va olib qo'yish"](#) - 46-sahifada

["Tashqi USB qurilmasini solish va chiqarib olish"](#) - 46-sahifada

3. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.

4. **Bo'yash kitobi**-ni tanlang.

5. Quyidagilardan birini bajaring.


- ☐ **Asl hujjatni skanerlash** bandini tanlaganingizda: chop qilish sozlamalarini kiriting va so'ngra asl hujjatni skaner oynasi qurilmasi ustiga qo'ying.  ni bosing.

["Asl nusxalarni joylashtirish"](#) - 43-sahifada

- ☐ **Xotira kartasidan tanlang** bandini tanlaganingizda: fotosuratlarni yuklash tugadi degan xabar displayda namoyish etilsa, **OK** tanlang. o'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan rasmni tanlang va keyin **Keyingisi**-ni cherting. **Asosiy sozlamalar** panelida parametrlarni belgilang, **Qo'shimcha sozlamalar** panelini tanlang, va keyin zaruriyatga qarab parametrlarni o'zgartiring. **Asosiy sozlamalar** panelini tanlang va keyin ga teging.

Bulut xizmatidan foydalanib chop qilish

Internetda mavjud bo'lgan Epson Connect xizmatidan foydalanish orqali smartfon, planshet yoki noutbukdan turib istalgan vaqtda va deyarli istalgan joyda chop qilishingiz mumkin. Bu xizmatdan foydalanish uchun foydalanuvchi va printerni Epson Connect-da ro'yxatdan o'tkazishingiz kerak.



Internetda foydalanish mumkin bo'lgan xususiyatlar quyidagilardir.

☐ Email Print

Siz printeriga tayinlangan elektron pochta manziliga hujjatlar yoki tasvirlar kabi bildirishnomalar bilan elektron xat yuborganingizda uyingiz yoki ofis printeri kabi masofadagi joylardan turib elektron xat va biriktirmalarni chop qilishingiz mumkin.

☐ Epson iPrint

Bu Ilova iOS va Android uchun va u smartfon yoki planshetdan turib chop qilish yoki skanerlashga imkon beradi. Ularni o'sha simsiz LAN dagi printeriga to'g'ridan-to'g'ri yuborish orqali hujjatlar, tasvirlar va veb-saytlarni chop qilishingiz mumkin.

☐ Remote Print Driver

Bu Masofadan chop qilish drayveri tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi baham ko'rilgan drayverdir. Masofada joylashgan printeridan foydalanib chop qilganda printerni odatdagi ilovalar oynasida o'zgartirish orqali chop qilishingiz mumkin.

O'rnatish yoki chop qilish bo'yicha tafsilotlarni Epson Connect veb portalida ko'ring.

<https://www.epsonconnect.com/>

<http://www.epsonconnect.eu> (Faqat Yevropa)

Boshqaruv panelida Epson Connect Service'dan ro'yxatdan o'tish

Printerni ro'yxatga olish uchun ushbu bosqichlarni bajaring.


1. Boshqaruv panelidagi **Sozlamalar** bandini tanlang.
2. Ro'yxatga olish varag'ini chop qilish uchun **Veb-xizmat sozlamalari** > **Epson Connect xizmatlari** > **Ro'yxatga olish** > **Sozlashni boshlash** ni tanlang.
3. Printerni ro'yxatga olish uchun ro'yxatga olish sahifasidagi ko'rsatmalarni bajaring.

Nusxa ko'chirish

Asl nusxalardan nusxa olish.	107
Fotosuratlardan nusxa ko'chirish.	112
ID kartadan nusxa ko'chirish.	114
Kitoblardan nusxa ko'chirish.	116
Hoshiyalarsiz nusxalash.	117
CD/DVD yorlig'idan nusxa olish.	117

Asl nusxalardan nusxa olish

Bu bo'limda boshqaruv panelidagi **Nusxalash** menyusidan asl nusxalardan nusxa olish uchun qanday foydalanish tushintiriladi.



1. Printerga qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)
2. Asl nusxalarni joylashtiring.
["Asl nusxalarni joylashtirish" - 43-sahifada](#)
3. Boshqaruv panelidagi **Nusxalash** bandini tanlang.
4. **Nusxalash** panelini tanlang va keyin **Oq-qora** yoki **Ranglini** tanlang.



5. Nusxalar sonini belgilang.
6.  ni bosing.

Eslatma:

- ☐ Agar **Ko'rish** tugmasini bossangiz, skanerlangan tasvirni ko'zdan kechirishingiz mumkin.
- ☐ Nusxa ko'chirilgan tasvirning rangi, o'lchami va chegarasi asl nusxanikidan bir oz farq qiladi.

Nusxalash uchun menyu opsiyalari

Nusxalash va **Qo'shimcha sozlamalar** panellaridagi foydalanish mumkin bo'lgan bandlar siz tanlagan menyuga ko'ra o'zgaradi.

Ko'rish:

Nusxa olish natijalarini ko'zdan kechirish uchun skanerlangan tasvirni ko'rsatadi.

Oq-qora:

Als nusxani oq va qorada (monoxrom) nusxa ko'chiradi.

Rangli:

Asl nusxani rangli nusxa ko'chiradi.

 (2 tomonlama):

☐ 1→ 1 tom.

Originalning bir tomonini bir varaq qog'ozning bitta tomoniga nusxa ko'chiradi.

☐ 1→2 tomonlama

Ikkita bir tomonli originallarni bir varaq qog'ozning ikki tomoniga nusxa ko'chiradi. Originalning yo'nalishi va qog'ozning qistiriladigan o'rnini tanlang.

 (Zichlik):

Nusxasi xira chiqsa, + belgisidan foydalangan holda zichlik darajasini oshiring. Siyoh chaplanib ketsa, - belgisidan foydalangan holda zichlik darajasini kamaytiring.

 (Miqyos):


Kattartirish yoki kichraytirish nisbatini sozlaydi. Qiymatni tanlang va originalni 25 dan 400% gacha oraliqda kichiklashtirish yoki kattalashtirish darajasini ko'rsating.

☐ Haqiqiy o'lchami

100% kattalashtirish bilan nusxa ko'chiradi.

☐ Avto-moslash

Skanerlash sohasini aniqlaydi va o'zingiz tanlagan qog'oz o'lchamiga sig'ishi uchun avtomatik ravishda kattalashtiradi yoki kichiklashtiradi. Asl nusxa atrofida oq hoshiyalar bo'lgan hollarda skaner shishasining burchak belgisidan boshlab oq hoshiyalar skanerlash sohasi sifatida aniqlanadi, biroq qarshi tomondagi hoshiyalar qirqilib ketishi mumkin.



☐ 10x15sm->A4, A4->10x15sm, va shu kabilar

Muayyan qog'oz o'lchamiga mos bo'lishi uchun avtomatik ravishda kattalashtiradi yoki kichiklashtiradi.

 (Qog'oz):

Ishlatiladigan qog'oz manbasini tanlang. Solingan qog'oz o'lchami va turini tanlash uchun -ni tanlang.

Ko'p sahifali:

☐ Bitta

Bir tomonli originalni bitta betga nusxalaydi.

☐ 2 ta

2 ta bir tomonli originalni bitta betga joylashtirib nusxa ko'chiradi.

☐ O'chirilgan

Kitobning bir yuz sahifasidan varaqning bitta tomoniga nusxa ko'chiradi. Bu menyu faqat Kitob nusxasi menyu ekranida ko'rsatiladi.

☐ 2 yuqoriga

Kitobning ikkita yuz sahifasini varaqning bitta tomoniga nusxa ko'chiradi. Bu menyu faqat Kitob nusxasi menyu ekranida ko'rsatiladi.

Sifat:

Nusxa olish uchun sifatni tanlang. **Yuqori**-ni tanlash yuqoriroq sifatli chop qilish bilan ta'minlaydi, biroq chop qilish tezligi sekinroq bo'lishi mumkin. Agar anchagina balandroq sifatdan foydalanib oddiy qog'ozga chop qilmoqchi bo'lsangiz, **Eng yaxshi** ni tanlang. Chop qilish tezligi sezilarli darajada sekinlashishi mumkinligini yodda tuting.

Fonni olish:

Original hujjatning qog'oz rangini (fon rangini) aniqlaydi va rangni olib tashlaydi yoki oqartiradi. Rangning to'qligi va ochligiga qarab, olib tashlanmasligi yoki oqartirilmasligi mumkin.

Kengaytiruv:

Hoshiyalarsiz nusxalash bilan birga, qog'oz chekkalaridagi hoshiyalarni olib tashlash uchun tasvir bir oz kattalashtiriladi. Rasmni qanchalik kattalashtirish kerakligini tanlang.

Barcha soz-ni tozalash:

Nusxalash sozlamalarini standart holatiga qaytaradi.

2 tomonlama nusxa ko'chirish


Bir nechta asl hujjatlarni qog'ozning har ikkala tomoniga nusxalang.



1. Printerga qog'oz soling.

["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)

2. Asl nusxalarni joylashtiring.
"Asl nusxalarni joylashtirish" - 43-sahifada
3. Boshqaruv panelidagi **Nusxalash** bandini tanlang.
4. 2 tomonlama panelidagi  (**Nusxalash**)-ni tanlang.
5. **1>2 tomonlama**-ni tanlang.
6. Asl nusxa oriyentatsiyasi va buklash hoshiyasini ko'rsating va so'ngra **OK** bandini tanlang.
Tugallangan tasvirni ekranning o'ng tomonida tekshirishingiz mumkin.




7.  ni bosing.

Eslatma:

- ☐ Agar **Ko'rish** tugmasini bossangiz, skanerlangan tasvirni ko'zdan kechirishingiz mumkin.
- ☐ Nusxa ko'chirilgan tasvirning rangi, o'lchami va chegarasi asl nusxanikidan bir oz farq qiladi.

Kattalashtirib yoki kichraytirib nusxa ko'chirish

Asl nusxalarni maxsus kattalashtirish orqali nusxa qilishingiz mumkin.



1. Printerga qog'oz soling.
"Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
2. Asl nusxalarni joylashtiring.
"Asl nusxalarni joylashtirish" - 43-sahifada
3. Boshqaruv panelidagi **Nusxalash** bandini tanlang.

4. **Qo'shimcha sozlamalar** panelini tanlang va keyin **Miqyos**-ni tanlang.
5. Asl o'lcham va o'rnatilayotgan qog'oz o'lchamiga siq'ishi uchun kattalashtirishni aniq belgilang, va keyin **OK**-ni tanlang.

Agar **Avto-moslash**-ni tanlasangiz, skanerlash sohasini avtomatik tarzda aniqlaydi va o'zingiz tanlagan qog'oz o'lchamiga siq'ishi uchun kattalashtiradi yoki kichiklashtiradi.

6. **Nusxalash** panelini tanlang.


7.  ni bosing.

Eslatma:

- ☐ Agar **Ko'rish** tugmasini bossangiz, skanerlangan tasvirni ko'zdan kechirishingiz mumkin.
- ☐ Nusxa ko'chirilgan tasvirning rangi, o'lchami va chegarasi asl nusxanikidan bir oz farq qiladi.


Bir nechta asl nusxalardan bir varaqqa nusxa ko'chirish

2 ta bir tomonli originalni bitta betga joylashtirib nusxa ko'chiradi.



1. Printeriga qog'oz soling.
["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)
2. Asl nusxalarni joylashtiring.
["Asl nusxalarni joylashtirish" - 43-sahifada](#)
3. Boshqaruv panelidagi **Nusxalash** bandini tanlang.
4. **Qo'shimcha sozlamalar** panelini tanlang va keyin **Ko'p sahifali**-ni tanlang.
5. **2 ta**-ni tanlang.

6. Asl nusxa oriyentatsiyasi va asl nusxa o'lchamini ko'rsating va so'ngra **OK** bandini tanlang. Tugallangan tasvirni ekranning o'ng tomonida tekshirishingiz mumkin.



7. **Nusxalash** panelini tanlang.


8.  ni bosing.

Eslatma:

- ☐ Agar **Ko'rish** tugmasini bossangiz, skanerlangan tasvirni ko'zdan kechirishingiz mumkin.
- ☐ Nusxa ko'chirilgan tasvirning rangi, o'lchami va chegarasi asl nusxanikidan bir oz farq qiladi.

Fotosuratlardan nusxa ko'chirish

Fotosuratlardan osongina nusxa ko'chirib olasiz. Rangi xira fotosuratlarda ranglarni qayta tiklashingiz mumkin.



Nusxa ko'chirish mumkin bo'lgan asl nusxaning eng kichik o'lchami 30×40 mm dir.

Eslatma:

Fotosurat atrofidagi oq sohalar aniqlanmasligi mumkin.

1. Printerga qog'oz soling.
"Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada
2. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
3. **Turli nusxalar > Fotosuratlarni nusxa ko'chirish/qayta tiklash**ni tanlang.

4. Chop qilish sozlamalarini keraklixa o'zgartiring va so'ngra **Asl nusxalarni qo'yish uchun** bandini tanlang.


["Rasmlardan nusxa olishda qog'oz va chop qilish sozlamalari uchun menyuu parametrlari"](#) - 113-sahifada

5. Asl nusxani pastga qaratgan holda joylashtiring va burchak belgisi tomon suring.

Fotosuratlarni skaner oynasining burchagidagi belgidan 5 mm uzoqroq joylashtiring. Bir nechta fotosuratlar va turli o'lchamdagi fotosuratlardan joylashtirsangiz bo'ladi.

Bir nechta fotosuratlarni joylashtirayotganda fotosuratlar orasida kamida 5 mm masofa qoldiring.

Maksimal o'lcham: 10×15 sm (4×6 dy.)



6. **Skanerlashni boshlash**-ni tanlang.

Fotosuratlar skanerlanadi va ekranda namoyish qilinadi.

7. Rasmni sozlash kabi zaruriy sozlamalar qilish kerak bo'lsa, **Tahrir** bandini tanlang.

Eslatma:

Agar siz fotosuratning kattalashtirilgan qismini chop qilmoqchi bo'lsangiz, **Qirqish/Kattalashtirish** bandini tanlang va so'ngra sozlamalarni kiriting. Chop qilinadigan sohani chapga, o'ngga, tepaga va pastga suring va ● bandidan foydalangan holda rasm cheti burchaklarida uning chetlari o'lchamini o'zgartiring.

["Rasmlardan nusxa olishda rasmlarning sozlamalari uchun menyuu parametrlari"](#) - 114-sahifada

8. ◇ ni bosing.

Eslatma:

Nusxa ko'chirilgan tasvirning rangi, o'lchami va chegarasi asl nusxanikidan bir oz farq qiladi.

Rasmlardan nusxa olishda qog'oz va chop qilish sozlamalari uchun menyuu parametrlari

Rangni tiklash:

Rangi o'chgan fotosuratlarining rangini qayta tiklaydi.

Qog'oz:

Ishlatiladigan qog'oz manbasini tanlang. Solingan qog'oz o'lchami va turini tanlash uchun -ni tanlang.

Hoshiya parametri:

☐ Hoshiyasiz

Qirralar atrofidagi hoshiyalarsiz nusxa ko'chiradi. Qog'oz qirralaridagi hoshiyalarni olib tashlash uchun tasvir bir oz kattalashtiriladi. Kengaytiruv sozlamasida qancha kattalashtirishni tanlang.

☐ Hoshiya bilan

Qirralar atrofidagi hoshiyalar bilan nusxa ko'chiradi.

Barcha soz-ni tozalash:

Nusxalash sozlamalarini standart holatiga qaytaradi.

Rasmlardan nusxa olishda rasmlarning sozlamalari uchun menyu parametrlari

Suratni rostdlash:

Suratni Yaxshilash asl tasvir ma'lumotlaridagi kontrast, to'yinganlik va ravshanlikni avtomatik sozlash orqali tiniqroq tasvirlar hamda yorqinroq ranglar hosil qiladi.

Filtr:

Oq-qora tarzda nusxa oladi.

Qirqish/Kattalashtirish:


Chop qilinadigan fotosuratning bir qismini kattalashtiradi.

Tahrirni tozalash.:

Fotosuratni tahrirlashni tozalaydi.

ID kartadan nusxa ko'chirish


ID kartaning har ikkala tarafini skanerlaydi va A4 o'lchamdagi qog'ozning bir tomoniga nusxa ko'chiradi.



1. Printeriga qog'oz soling.

["Qog'ozni yuklash"](#) - 38-sahifada

2. Asl nusxani pastga qaratgan holda joylashtiring va burchak belgisi tomon suring.
ID kartani skaner oynasining burchagidagi belgidan 5 mm uzoqroq joylashtiring.




3. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.
4. **Turli nusxalar** > **ID kartani** tanlang.
5. Qog'oz manbasi va qog'oz o'lchamini ko'rsating va keyin **OK**-ni tanlang.
6. **Nusxalash** panelini tanlang.
7.  ni bosing.

Eslatma:

Agar **Ko'rish** bandiga teginsangiz, skanerlangan tasvirni ko'zdan kechirishingiz mumkin.

8. Asl nusxaning orqa tomonini joylashtirish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling va so'ngra **Skanerlashni boshlash** bandiga tegining.
ID kartani skaner oynasining burchagidagi belgidan 5 mm uzoqroq joylashtiring.




Eslatma:

Nusxa ko'chirilgan tasvirning rangi, o'lchami va chegarasi asl nusxanikidan bir oz farq qiladi.

Kitoblardan nusxa ko'chirish

Kitobning ikkita A4 o'lchamdagi ketma-ket sahifalari va shu kabilarni bir varaq qog'ozga chop qiladi.



1. Printerga qog'oz soling.

“Qog'ozni yuklash” - 38-sahifada

2. Boshqaruv panelidagi **Turli bosmalar** bandini tanlang.

3. **Turli nusxalar > Kitob nusxasini** tanlang.

4. Asl nusxalarni joylashtiring.

Asl nusxaning birinchi sahifasini joylashtirish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling va so'ngra **Chop qilish sozlamalari** bandiga tegining.

5. **Qo'shimcha sozlamalar** bandini tanlang va so'ngra zaruriy sozlamalarni o'zgartiring.

Agar **2 yuqoriga** in **Ko'p sahifali**-ni tanlasangiz, kitobning ikki tomonlama sahifalarini qog'ozning bitta tomoniga chop qilishingiz mumkin.

6. **Nusxalash** panelini tanlang.

7.  ni bosing.

Eslatma:

Agar **Ko'rish** bandiga teginsangiz, skanerlangan tasvirni ko'zdan kechirishingiz mumkin.


8. Asl nusxaning ikkinchi betini joylashtirish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling va so'ngra **Skanerlashni boshlash** bandiga tegining.

Eslatma:

Nusxa ko'chirilgan tasvirning rangi, o'lchami va chegarasi asl nusxanikidan bir oz farq qiladi.

Hoshiyalarsiz nusxalash

Qirralar atrofidagi hoshiyalarsiz nusxa ko'chiradi. Qog'oz qirralaridagi hoshiyalarni olib tashlash uchun tasvir bir oz kattalashtiriladi.




Aqlli qurilmangiz tarmoq parametrlarining to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqlli qurilmangizdan birorta veb-saytga kirishga urinib ko'ring. Agar birorta ham veb-saytga kira olmasangiz, aqlli qurilmangiz bilan bog'liq muammo mavjud bo'ladi.

Kompyuterning tarmoqqa ulanishini tekshirish. Tafsilotlar uchun smart qurilmangiz bilan taqdim etilgan hujjatga qarang.

Garchi ulanish to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa ham chop qilib bo'lmayapti (iOS)

Quyidagi sabablarni ko'rib chiqish mumkin.

■ **Qog'ozni sozlash o'chirib qo'yiladi.**

Yechimlar

Quyidagi menyuda **Qog'ozni sozlash**-ni yoqing.

Sozlamalar > **Printer sozlamalari** > **Qog'oz manbasi** > **Qog'ozni sozlash**

■ **AirPrint o'chirib qo'yiladi.**

Yechimlar

Web Config-da AirPrint parametrini yoqing.

➔ ["Printer operatsiyalarini sozlash uchun ilova \(Web Config\)"](#) - 279-sahifada

To'satdan printer tarmoq ulanishi orqali chop qilmay qo'ydi

Muammo quyidagi masalalardan biri bo'lishi mumkin.

■ **Tarmoq muhiti o'zgartirildi.**

Yechimlar

Simsiz router yoki provayderni tarmoq muhitini o'zgartirganingizda printer uchun tarmoq sozlamalarini qaytadan o'rnatishga urining.

Kompyuter yoki smart qurilmani printer bilan bitta SSID qa ulang.


➔ ["Tarmoq ulanishini qaytadan o'rnatish"](#) - 247-sahifada

■ **Wi-Fi ulanishi uchun tarmoq qurilmalari bilan nimadir noto'g'ri o'rnatilgan.**

Yechimlar

Tarmoqqa ulamoqchi bo'lgan qurilmalaringizni o'chiring. 10 soniya kutib turing va keyin qurilmalarni quyidagi tartibda yoqing: simsiz router, kompyuter yoki smart qurilma va keyin

printer. Radioto'lqinli aloqaga yordam berish uchun printer va kompyuter yoki smart qurilmani simsiz routerga yaqinlashtiring va keyin tarmoqni sozlashlarga qaytadan urining.



■ **Printer tarmoqqa ulanmagan.**

Yechimlar

Sozlamalar > **Tarmoq sozlamalari** > **Aloqani tekshirish**-ni tanlang va keyin tarmoq ulanishi hisobotini chop qiling. Agar hisobot tarmoq ulanishining xatolikka uchraganini ko'rsatsa, tarmoq ulanishi hisobotini tekshiring va keyin chop qilingan yechimlarga amal qiling.

➔ ["Tarmoq ulanishi hisobotini chop qilish"](#) - 258-sahifada

■ **Aqlli qurilmada tarmoq sozlamalari bilan muammo mavjud.**

Yechimlar

Aqlli qurilmangiz tarmoq parametrlarining to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqlli qurilmangizdan birorta veb-saytga kirishga urinib ko'ring. Agar birorta ham veb-saytga kira olmasangiz, aqlli qurilmangiz bilan bog'liq muammo mavjud bo'ladi.

Kompyuterning tarmoqqa ulanishini tekshirish. Tafsilotlar uchun smart qurilmangiz bilan taqdim etilgan hujjatga qarang.

Skanerlashni boshlab bo'lmayapti

Windows OT dan skanerlashni boshlab bo'lmayapti

Kompyuter bilan printerning to'g'ri ulanganligiga ishonch hosil qiling.

Muammoning sababi va yechimi ularning ulanganligi yoki yo'qligiga ko'ra farq qiladi.

Ulanishi holatini tekshirish

Kompyuter bilan printer uchun ulanish holatini tekshirish uchun Epson Printer Connection Checker ilovasidan foydalaning. Tekshirish natijalaridan kelib chiqib muammoni yecha olishingiz mumkin.

1. Ish stolidagi **Epson Printer Connection Checker** belgiga ikki marta bosong.

Epson Printer Connection Checker ishga tushadi.

Agar ish stolida belgi bo'lmasa, Epson Printer Connection Checker boshlash uchun quyidagi usulga amal qiling.

☐ Windows 10

Start tugmasini bosib, **Epson Software** > **Epson Printer Connection Check**ni tanlang.

☐ Windows 8.1/Windows 8

Qidirish qatoriga dastur nomini yozing va keyin namoyish qilingan tasvirchani tanlang.

☐ Windows 7

Start tugmasini bosing, so'ng **Barcha dasturlar** > **Epson Software** > **Epson Printer Connection Checker** ni tanlang.

2. Tekshirish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Eslatma:

Agar printer nomi ko'rsatilmasa, asl Epson printer drayverini o'rnaring.

"Asl Epson printer drayverining o'rnatilganligini tekshirish — Windows" - 157-sahifada

Muammoni aniqlaganingizda ekranda ko'rsatilgan yechimga amal qiling.

Muammoni yecha olmasangiz vaziyatingizga qarab quyidagiga amal qiling.

☐ Printer tarmoq ulanishi orqali tanib olinmagan

"Tarmoqqa ulab bo'lmaydi" - 190-sahifada

☐ USB ulanishidan foydalanib printer tanib olinmagan

"Printerni USB orqali ulab bo'lmayapti (Windows)" - 175-sahifada

☐ Printer tanib olingan, biroq skanerlab bo'lmayapti.

"Garchi ulanish to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa ham skanerlab bo'lmayapti (Windows)" - 193-sahifada


Tarmoqqa ulab bo'lmaydi

Muammo quyidagi masalalardan biri bo'lishi mumkin.

■ Wi-Fi ulanishi uchun tarmoq qurilmalari bilan nimadir noto'g'ri o'rnatilgan.

Yechimlar

Tarmoqqa ulamoqchi bo'lgan qurilmalaringizni o'chiring. 10 soniya kutib turing va keyin qurilmalarni quyidagi tartibda yoqing: simsiz router, kompyuter yoki smart qurilma va keyin printer. Radioto'lqinli aloqaga yordam berish uchun printer va kompyuter yoki smart qurilmani simsiz routerga yaqinlashtiring va keyin tarmoqni sozlashlarga qaytadan urining.



Ular undan juda uzoqda joylashganliklari uchun ular simsiz routerdan signallarni qabul qila olmaydilar.

Yechimlar

Kompyuter yoki smart qurilma bilan printerni simsiz routerga yaqinroq surgandan keyin simsiz routerni o'chiring va qaytadan yoqing.

Simsiz routerni almashtirishda sozlamalar yangi routerga mos kelmaydi.

Yechimlar

Ular yangi simsiz routerga mos bo'lishi uchun sozlashlarni qaytadan o'rnatishni bajaring.


➔ ["Simsiz routerni almashtirganda"](#) - 247-sahifada

Kompyuter yoki aqlli qurilma va kompyuter orqali ulangan SSID lar farq qiladi.

Yechimlar

Bir vaqtning o'zida bir nechta simsiz routerlardan foydalanayotganingizda yoki simsiz router bir nechta SSID larga ega bo'lsa va qurilmalar turli SSID larga ulangan bo'lsa, simsiz routerga ulana olmaydilar.

Kompyuter yoki smart qurilmani printer bilan bitta SSID qa ulang.



Simsiz routerdagi maxfiylik ajratgichidan foydalanish mumkin.

Yechimlar

Ko'pchilik simsiz routerlar bitta SSID doirasidagi qurilmalar o'rtasidagi aloqani bloklovchi ajratish funksiyasiga ega. Agar printer bilan kompyuter yoki smart qurilma o'rtasida bitta tarmoqqa ulangandan so'ng ham aloqa bo'lmasa, simsiz routerda ajratish funksiyasini o'chirib qo'ying. Batafsil ma'lumotlar olish uchun simsiz router bilan birga berilgan qo'llanmaga qarang.

IP manzil noto'g'ri belgilangan.

Yechimlar

Agar printeriga IP-manzil 169.254.XXX.XXX qilib va quyi tarmoq maskasi 255.255.0.0 qilib belgilangan bo'lsa, IP-manzil to'g'ri belgilanmasligi mumkin.

Printerning boshqaruv panelida **Sozlamalar** > **Tarmoq sozlamalari** > **Qo'shimcha**-ni tanlang, va keyin IP manzil va printeriga belgilangan quyi tarmoq maskasini tekshiring.

Simsiz routerni o'chirib, yoqing yoki printer uchun tarmoq sozlamalarini qayta sozlang.

➔ ["Tarmoq ulanishini qaytadan o'rnatish"](#) - 247-sahifada

Kompyuterda tarmoq sozlamalari bilan muammo mavjud.

Yechimlar

Kompyuteringiz tarmoq parametrlarining to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun kompyuteringizdan birorta veb-saytga kirishga urinib ko'ring. Agar birorta ham veb-saytga kira olmasangiz, kompyuteringiz bilan bog'liq muammo mavjud bo'ladi.

Kompyuterning tarmoqqa ulanishini tekshirish. Batafsil ma'lumotlar olish uchun kompyuter bilan birga berilgan hujjatlarga qarang.

Printer IEEE 802.3az (Energiya tejamkor Ethernet)ni qo'llab-quvvatlaydigan qurilmadan foydalanib Ethernetga ulangan.

Yechimlar

Printerni IEEE 802.3az (Energiya tejamkor Ethernet) ni qo'llab-quvvatlovchi qurilmalardan foydalanib Ethernet orqali ulaganingizda siz foydalanayotgan xab yoki simsiz routerga bog'liq ravishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

- ☐ Ulanish beqaror bo'lib qoladi, printer qayta va qayta ualanadi va uziladi.
- ☐ Printerni ulab bo'lmaydi.
- ☐ Aloqa tezligi sekinlashib qoladi.

Printeriga bo'lgan IEEE 802.3az ni o'chirib qo'yish uchun quyidagi qadamlarni bajaring va keyin ulang.

1. Kompyuter va printeriga ulangan Ethernet kabelini chiqarib oling.
2. Kompyuter uchun IEEE 802.3az yoqilganida uni o'chiring.
Batafsil ma'lumotlar olish uchun kompyuter bilan birga berilgan hujjatlarga qarang.
3. Kompyuter va printerni Ethernet kabeli bilan to'g'ridan-to'g'ri ulang.
4. Printerda tarmoq ulanishi hisobotini chop qiling.
["Tarmoq ulanishi hisobotini chop qilish"](#) - 258-sahifada
5. Tarmoq ulanishi hisobotida printerning IP-manzilini tekshiring.
6. Kompyuterda Web Config ilovasiga kiring.
Veb-brauzerni ishga tushiring va keyin printerning IP-manzilini kiriting.
["Printer operatsiyalarini sozlash uchun ilova \(Web Config\)"](#) - 279-sahifada
7. Oynaning yuqori o'ng buchagidagi ro'yxatdan **Advanced Settings** bandini tanlang.
8. **Network Settings** > **Wired LAN**ni tanlang.
9. **IEEE 802.3az** uchun **OFF**-ni tanlang.
10. **Next**-ni cherting.

11. **OK**-ni cherting.
12. Kompyuter va printeriga ulangan Ethernet kabelini chiqarib oling.
13. Agar 2-qadamda kompyuter uchun IEEE 802.3az ni o'chirib qo'ygan bo'lsangiz, uni yoqing.
14. 1-qadamda uzib qo'yilgan Ethernet kabellarini kompyuter bilan printeriga ulang.
Agar muammo baribir paydo bo'laversa, printerdan boshqa qurilmalar muammoni yuzaga keltirayotgan bo'lishi mumkin.

Printernu USB orqali ulab bo'lmayapti (Windows)

Quyidagi sabablarni ko'rib chiqish mumkin.

■ USB kabeli elektrorozetkaga to'g'ri ulanmagan.

Yechimlar

USB kabelini printer va kompyuterga mahkam ulang.

■ USB xab holati bilan bog'liq muammo mavjud.

Yechimlar

Agar USB xabidan foydalanayotgan bo'lsangiz, printerni to'g'ridan-to'g'ri kompyuterga ulashga urinib ko'ring.

■ USB kabeli yoki USB kirish manbasi bilan muammo mavjud.

Yechimlar

Agar printer USB kabelni ko'rmayotgan bo'lsa, portni yoki USB kabelni almashtiring.

Garchi ulanish to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa ham skanerlab bo'lmayapti (Windows)

■ Tarmoq orqali yuqori aniqlikda skanerlash.

Yechimlar

Quyiroq tasvir aniqligida skanerlashga harakat qiling.

Mac OS dan skanerlashni boshlab bo'lmayapti

Kompyuter bilan printerning to'g'ri ulanganligiga ishonch hosil qiling.

Muammoning sababi va yechimi ularning ulanganligi yoki yo'qligiga ko'ra farq qiladi.

Ulanishi holatini tekshirish

Kompyuter bilan printer uchun ulanish holatini tekshirish uchun EPSON Status Monitor ilovasidan foydalaning.

1. Apple menyusi > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash, Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari** bandini tanlang va keyin printerni tanlang.
2. **Prametrlar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish** tugmasini bosing.
3. **EPSON Status Monitor**-ni cherting.

Qolgan siyoh darajalari ko'rsatilganida kompyuter bilan printer o'rtasida ulanish muvaffaqiyatli o'rnatiladi.

Agar ulanish o'rnatilmasa, quyidagini tekshiring.

- ☐ Printer tarmoq ulanishi orqali tanib olinmagan
"Tarmoqqa ulab bo'lmaydi" - 194-sahifada
- ☐ USB ulanishidan foydalanib printer tanib olinmagan
"Printerni USB orqali ulab bo'lmayapti (Mac OS)" - 184-sahifada

Agar ulanish o'rnatilsa, quyidagini tekshiring.

- ☐ Printer tanib olingan, biroq skanerlab bo'lmayapti.
"Garchi ulanish to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa ham skanerlab bo'lmayapti (Mac OS)" - 197-sahifada


Tarmoqqa ulab bo'lmaydi

Muammo quyidagi masalalardan biri bo'lishi mumkin.

■ Wi-Fi ulanishi uchun tarmoq qurilmalari bilan nimadir noto'g'ri o'rnatilgan.

Yechimlar

Tarmoqqa ulamoqchi bo'lgan qurilmalaringizni o'chiring. 10 soniya kutib turing va keyin qurilmalarni quyidagi tartibda yoqing: simsiz router, kompyuter yoki smart qurilma va keyin printer. Radioto'lqinli aloqaga yordam berish uchun printer va kompyuter yoki smart qurilmani simsiz routerga yaqinlashtiring va keyin tarmoqni sozlashlarga qaytadan urining.



■ Ular undan juda uzoqda joylashganliklari uchun ular simsiz routerdan signallarni qabul qila olmaydilar.

Yechimlar

Kompyuter yoki smart qurilma bilan printerni simsiz routerga yaqinroq surgandan keyin simsiz routerni o'chiring va qaytadan yoqing.

■ **Simsiz routerni almashtirishda sozlamalar yangi routerga mos kelmaydi.**

Yechimlar

Ular yangi simsiz routerga mos bo'lishi uchun sozlashlarni qaytadan o'rnatishni bajaring.


➔ ["Simsiz routerni almashtirganda" - 247-sahifada](#)

■ **Kompyuter yoki aqlli qurilma va kompyuter orqali ulangan SSID lar farq qiladi.**

Yechimlar

Bir vaqtning o'zida bir nechta simsiz routerlardan foydalanayotganingizda yoki simsiz router bir nechta SSID larga ega bo'lsa va qurilmalar turli SSID larga ulangan bo'lsa, simsiz routerga ulana olmaysiz.

Kompyuter yoki smart qurilmani printer bilan bitta SSID qa ulang.



■ **Simsiz routerdagi maxfiylik ajratgichidan foydalanish mumkin.**

Yechimlar

Ko'pchilik simsiz routerlar bitta SSID doirasidagi qurilmalar o'rtasidagi aloqani bloklovchi ajratish funksiyasiga ega. Agar printer bilan kompyuter yoki smart qurilma o'rtasida bitta tarmoqqa ulangandan so'ng ham aloqa bo'lmasa, simsiz routerda ajratish funksiyasini o'chirib qo'ying. Batafsil ma'lumotlar olish uchun simsiz router bilan birga berilgan qo'llanmaga qarang.

■ **IP manzil noto'g'ri belgilangan.**

Yechimlar

Agar printeriga IP-manzil 169.254.XXX.XXX qilib va quyi tarmoq maskasi 255.255.0.0 qilib belgilangan bo'lsa, IP-manzil to'g'ri belgilanmasligi mumkin.

Printerning boshqaruv panelida **Sozlamalar** > **Tarmoq sozlamalari** > **Qo'shimcha**-ni tanlang, va keyin IP manzil va printeriga belgilangan quyi tarmoq maskasini tekshiring.

Simsiz routerni o'chirib, yoqing yoki printer uchun tarmoq sozlamalarini qayta sozlang.

➔ ["Tarmoq ulanishini qaytadan o'rnatish" - 247-sahifada](#)

Kompyuterda tarmoq sozlamalari bilan muammo mavjud.

Yechimlar

Kompyuteringiz tarmoq parametrlarining to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun kompyuteringizdan birorta veb-saytga kirishga urinib ko'ring. Agar birorta ham veb-saytga kira olmasangiz, kompyuteringiz bilan bog'liq muammo mavjud bo'ladi.

Kompyuterning tarmoqqa ulanishini tekshirish. Batafsil ma'lumotlar olish uchun kompyuter bilan birga berilgan hujjatlarga qarang.

USB 3.0 portiga ulangan qurilmada radio chastotali shovqin keltirib chiqaradi.

Yechimlar

Qurilmangizni Mac'da USB 3.0 portiga ulaganingizda radiochastotali halaqitlar yuzaga kelishi mumkin. Agar simsiz LAN (Wi-Fi) tarmog'iga ulana olmasangiz yoki ishlashlari noturg'un bo'lsa, quyidagini sinab ko'ring.

☐ USB 3.0 portiga ulangan qurilmani kompyuterdan uzoqroqqa siljiting.

☐ 5 GGts diapazon uchun SSIDga ulaning.

➔ ["SSID va parolni kiritish orqali Wi-Fi sozlamalarni o'rnatish"](#) - 250-sahifada

Printer IEEE 802.3az (Energiya tejamkor Ethernet)ni qo'llab-quvvatlaydigan qurilmadan foydalanib Ethernetga ulangan.

Yechimlar

Printerni IEEE 802.3az (Energiya tejamkor Ethernet) ni qo'llab-quvvatlovchi qurilmalardan foydalanib Ethernet orqali ulaganingizda siz foydalanayotgan xab yoki simsiz routerga bog'liq ravishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

☐ Ulanish beqaror bo'lib qoladi, printer qayta va qayta ualanadi va uziladi.

☐ Printerni ulab bo'lmaydi.

☐ Aloqa tezligi sekinlashib qoladi.

Printerga bo'lgan IEEE 802.3az ni o'chirib qo'yish uchun quyidagi qadamlarni bajaring va keyin ulang.

1. Kompyuter va printeriga ulangan Ethernet kabelini chiqarib oling.

2. Kompyuter uchun IEEE 802.3az yoqilganida uni o'chiring.

Batafsil ma'lumotlar olish uchun kompyuter bilan birga berilgan hujjatlarga qarang.

3. Kompyuter va printerni Ethernet kabeli bilan to'g'ridan-to'g'ri ulang.

4. Printerda tarmoq ulanishi hisobotini chop qiling.

["Tarmoq ulanishi hisobotini chop qilish"](#) - 258-sahifada

5. Tarmoq ulanishi hisobotida printerning IP-manzilini tekshiring.

6. Kompyuterda Web Config ilovasiga kiring.

Veb-brauzerni ishga tushiring va keyin printerning IP-manzilini kiriting.

["Printer operatsiyalarini sozlash uchun ilova \(Web Config\)"](#) - 279-sahifada

7. Oynaning yuqori o'ng buchagidagi ro'yxatdan **Advanced Settings** bandini tanlang.
 8. **Network Settings** > **Wired LAN**ni tanlang.
 9. **IEEE 802.3az** uchun **OFF**-ni tanlang.
 10. **Next**-ni cherting.
 11. **OK**-ni cherting.
 12. Kompyuter va printeriga ulangan Ethernet kabelini chiqarib oling.
 13. Agar 2-qadamda kompyuter uchun IEEE 802.3az ni o'chirib qo'ygan bo'lsangiz, uni yoqing.
 14. 1-qadamda uzib qo'yilgan Ethernet kabellarini kompyuter bilan printeriga ulang.
- Agar muammo baribir paydo bo'laversa, printerdan boshqa qurilmalar muammoni yuzaga keltirayotgan bo'lishi mumkin.

Printernu USB orqali ulab bo'lmayapti (Mac OS)

Quyidagi sabablarni ko'rib chiqish mumkin.

■ USB kabeli elektrorozetkaga to'g'ri ulanmagan.

Yechimlar

USB kabelini printer va kompyuterga mahkam ulang.

■ USB xab holati bilan bog'liq muammo mavjud.

Yechimlar

Agar USB xabidan foydalanayotgan bo'lsangiz, printerni to'g'ridan-to'g'ri kompyuterga ulashga urinib ko'ring.

■ USB kabeli yoki USB kirish manbasi bilan muammo mavjud.

Yechimlar

Agar printer USB kabelni ko'rmayotgan bo'lsa, portni yoki USB kabelni almashtiring.

Garchi ulanish to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa ham skanerlab bo'lmayapti (Mac OS)

■ Tarmoq orqali yuqori aniqlikda skanerlash.

Yechimlar

Quyiroq tasvir aniqligida skanerlashga harakat qiling.

Smart qurilmadan skanerlashni boshlab bo'lmayapti

Smart qurilma bilan printerning to'g'ri ulanganligiga ishonch hosil qiling.

Muammoning sababi va yechimi ularning ulanganligi yoki yo'qligiga ko'ra farq qiladi.

Smart qurilma bilan ulanishni tekshiring

Smart qurilma bilan printer o'rtasidagi ulanishni tekshirish uchun Epson Smart Panel ilovasidan foydalaning.

Epson Smart Panel ilovasini oching. Agar printerga ulay olmasangiz, qayta o'rnatish uchun ekranning yuqori qismidagi [+] tugmasini bosib.

Agar siz Epson Smart Panel ilovasidan foydalanmayotgan bo'lsangiz, quyidagi havolaga qarang.

<http://epson.sn>


Tarmoqqa ulab bo'lmaydi

Muammo quyidagi masalalardan biri bo'lishi mumkin.

Wi-Fi ulanishi uchun tarmoq qurilmalari bilan nimadir noto'g'ri o'rnatilgan.

Yechimlar

Tarmoqqa ulamoqchi bo'lgan qurilmalaringizni o'chiring. 10 soniya kutib turing va keyin qurilmalarni quyidagi tartibda yoqing: simsiz router, kompyuter yoki smart qurilma va keyin printer. Radioto'lqinli aloqaga yordam berish uchun printer va kompyuter yoki smart qurilmani simsiz routerga yaqinlashtiring va keyin tarmoqni sozlashlarga qaytadan urining.



Ular undan juda uzoqda joylashganliklari uchun ular simsiz routerdan signallarni qabul qila olmaydilar.

Yechimlar

Kompyuter yoki smart qurilma bilan printerni simsiz routerga yaqinroq surgandan keyin simsiz routerni o'chiring va qaytadan yoqing.

Simsiz routerni almashtirishda sozlamalar yangi routerga mos kelmaydi.

Yechimlar

Ular yangi simsiz routerga mos bo'lishi uchun sozlashlarni qaytadan o'rnatishni bajaring.


➔ ["Simsiz routerni almashtirganda"](#) - 247-sahifada

Kompyuter yoki aqlli qurilma va kompyuter orqali ulangan SSID lar farq qiladi.

Yechimlar

Bir vaqtning o'zida bir nechta simsiz routerlardan foydalanayotganingizda yoki simsiz router bir nechta SSID larga ega bo'lsa va qurilmalar turli SSID larga ulangan bo'lsa, simsiz routerga ulana olmaysiz.

Kompyuter yoki smart qurilmani printer bilan bitta SSID qa ulang.



■ Simsiz routerdagi maxfiylik ajratgichidan foydalanish mumkin.

Yechimlar

Ko'pchilik simsiz routerlar bitta SSID doirasidagi qurilmalar o'rtasidagi aloqani bloklovchi ajratish funksiyasiga ega. Agar printer bilan kompyuter yoki smart qurilma o'rtasida bitta tarmoqqa ulangandan so'ng ham aloqa bo'lmasa, simsiz routerda ajratish funksiyasini o'chirib qo'ying. Batafsil ma'lumotlar olish uchun simsiz router bilan birga berilgan qo'llanmaga qarang.

■ IP manzil noto'g'ri belgilangan.

Yechimlar

Agar printeriga IP-manzil 169.254.XXX.XXX qilib va quyi tarmoq maskasi 255.255.0.0 qilib belgilangan bo'lsa, IP-manzil to'g'ri belgilanmasligi mumkin.

Printerning boshqaruv panelida **Sozlamalar** > **Tarmoq sozlamalari** > **Qo'shimcha**-ni tanlang, va keyin IP manzil va printeriga belgilangan quyi tarmoq maskasini tekshiring.

Simsiz routerni o'chirib, yoqing yoki printer uchun tarmoq sozlamalarini qayta sozlang.

➔ ["Tarmoq ulanishini qaytadan o'rnatish"](#) - 247-sahifada

■ Aqlli qurilmada tarmoq sozlamalari bilan muammo mavjud.

Yechimlar

Aqlli qurilmangiz tarmoq parametrlarining to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqlli qurilmangizdan birorta veb-saytga kirishga urinib ko'ring. Agar birorta ham veb-saytga kira olmasangiz, aqlli qurilmangiz bilan bog'liq muammo mavjud bo'ladi.

Kompyuterning tarmoqqa ulanishini tekshirish. Tafsilotlar uchun smart qurilmangiz bilan taqdim etilgan hujjatga qarang.

Printerni kutilganidek ishlatib bo'lmayapti

Operatsiyalar sekin bajarilayapti

Juda sekin chop etilmoqda

Quyidagi sabablarni ko'rib chiqish mumkin.

■ Keraksiz ilovalar ishlayapti.

Yechimlar

Kompyuteringiz yoki smart qurilmangizdagi har qanday keraksiz ilovalarni yoping.

■ Chop qilish sifati yuqori darajaga o'rnatilgan.

Yechimlar

Sifat parametrini pasaytiring.

■ Ikki yo'nalishli chop qilish o'chirilgan.

Yechimlar

Qo'sh yo'nalish (yoki yuqori tezlik) parametrini yoqing. Bu parametr yoqilganda chop qilish golovkasi har ikkala yo'nalishda harakatlanganda chop qiladi va chop qilish tezligi ortadi.

☐ Boshqaruv paneli

Sozlamalar > Printer sozlamalari bandidagi **Ikki tomonlama** sozlamani ishga tushiring.

☐ Windows

Printer drayverining **Ko'proq tanlamalar** panelida **Ikki yo'nalishda chop qilish** parametrini tanlang.

☐ Mac OS

Apple menyusi > **Printerlar va skanerlar** (yoki **Chop qilish va skanerlash, Chop qilish va faks**)-dan **Tizim afzalliklari** ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiylar va ta'minotchilar > Opsiylar**-ni (yoki **Drayver**-ni) cherting. **Yuqori tezlikda chop qilish** parametri sifatida **On**-ni tanlang.

■ Sokin rejim rejimi yoqilgan.

Yechimlar

Sokin rejim-ni o'chirib qo'ying. Printer **Sokin rejim** rejimda ishlayotganda chop qilish tezligi sekinlashadi.

☐ Boshqaruv paneli

Bosh ekrandan  ni tanlang va keyin **O'ch** ni tanlang.

☐ Windows

Printer drayverining **Asosiy** panelida **Sokin rejim** parametri sifatida **O'chiq**-ni tanlang.

❑ Mac OS

Apple menyusi > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash, Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Opsiyalar**-ni (yoki **Drayver**-ni) cherting. Off parametri sifatida **Sokin rejim**-ni tanlang.

■ **Simsiz router bilan bog'liq tarmoq ulanishi muammolar mavjud bo'lishi mumkin.**

Yechimlar

Tarmoqqa ulangan boshqa foydalanuvchilarni hisobga olgan holda simsiz routerni o'chirib yoqing. Agar bu muammoni hal qilmasa, printerni simsiz routingizga yaqinroq joylashtiring yoki kirish nuqtasi bilan birga berilgan hujjatlarga qarang.

■ **Printer oddiy qog'ozda fotosurat kabi yuqori zichlikka ega ma'lumotni chop qilayapti.**

Yechimlar

Agar siz oddiy qog'ozda rasm kabi zichligi yuqori ma'lumotni chop qilayotgan bo'lsangiz, chop qilish sifatini ta'minlash maqsadida chop qilish jarayoni uzoqroq cho'zilishi mumkin. Bu uskunaning buzilganligini anglatmaydi.

Davomli chop qilish vaqtida chop qilish keskin sekinlashib qoladi

■ **Printer mexanizmining qizib ketishi va zarar yetishi oldini oladigan funktsiya ishlamayapti.**

Yechimlar

Chop qilishni davom ettirishingiz mumkin. Chop qilishning oddiy tezligiga qaytish uchun printerni kamida 30 daqiqa chop qilishdan to'xtating. Agar quvvat o'chiq bo'lsa, chop qilish tezligi odatdagi tezlikka qaytmaydi.

Skanerlash tezligi juda past

■ **Yuqori aniqlikda skanerlash.**

Yechimlar

Quyiroq tasvir aniqligida skanerlashga harakat qiling.

LCD ekran qorayib qoldi

■ **Printer uyqu rejimida.**

Yechimlar

Oldingi holatiga qaytarish uchun LCD ekraniga tegining.

Ekranda “!” ko'rsatiladi va siz fotosuratlarni tanlay olmaysiz

■ Tasvir fayli qo'llab-quvvatlanmaydi.

Yechimlar

Tasvir faylini qurilma tushuna olmasa, LCD ekranida “!” ko'rsatiladi. Mahsulot tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi fayllardan foydalaning.

➔ [“Qo'llab-quvvatlanuvchi ma'lumotlar xususiyatlari” - 294-sahifada](#)

■ Fayl nomi printer tomonidan tanib olinishi uchun juda uzunlik qiladi.

Yechimlar

Fotosuratlarni chop qilish uchun quyidagi yechimlardan foydalanishingiz mumkin.

- ☐ Kompyuterdan chop qilish
- ☐ Epson Smart Panel ilovasidan foydalanib smart qurilmadan chop qilish
Smart qurilmangizdan xotira kartasini olib qo'yishingiz shart emas.

Barmoqlarini qisib yoki yoyib bo'lmayapti

■ Ekranni bosishda yetarlicha bosim ishlatilmayapti.

Yechimlar

Agar barmoqlarni to'g'ri qisib yoki yoyib bo'lmasa, ekranga yengil bosib turgan holda operatsiyalarni bajaring.

Skaner blogini yopib bo'lmayapti


■ Skaner blogi barmoqlarni qisib qolishning oldini olish chorasini sifatida sekin yopilish va kamroq qarshilik qilishga mo'ljallangan.

Yechimlar

Hattoki biroq qarshilikni his qilsangiz ham yopishni davom ettiring.


Hujjat qopqog' chiqib ketayapti

Uzatgich yo'naltirgichini oching va keyin hujjat qopqog'ini ushlagichlarini to'g'ri qilgan holda vertikal tarzda kiriting.




Orqa qog'oz tayanchini yopib bo'lmayapti

Qog'oz tayanchini tik holda o'rnatib va keyin uni quyidagi rasmda ko'rsilgani kabi bu slotga kiriting.



Qog'oz tayanchi chiqib ketdi

Orqadan qog'oz uzatish uchun qog'oz tayanchining turtib chiqqan qismlarini vertikal tarzda har bir tomondagi slotlarga kiriting.



Xotira qurilmasiga ma'lumot saqlab bo'lmayapti

Quyidagi sabablarni ko'rib chiqish mumkin.

■ Qo'llab-quvvaylanmaydigan xotira qurilmasidan foydalanilayapti.

Yechimlar

Mahsulot tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi xotira qurilmasidan foydalaning.

■ Xotira qurilmasi yozishdan himoyalangan.

Yechimlar

Xotira qurilmasidagi yozishdan himoyani o'chirib qo'ying.

■ Xotira qurilmasida bo'sh joy yetarli emas.

Yechimlar

Keraksiz ma'lumotlarni o'chiring yoki boshqa xotira qurilmasi soling.

Ishlash tovushi baland

■ Printerda Sokin rejim rejimi o'chirilgan.

Yechimlar

Agar ishlash vaqtida ovoz baland bo'lsa, **Sokin rejimni** yoqing. Bu funksiya yoqilsa, chop qilish tezligi pasayishi mumkin.

☐ Boshqaruv paneli

Bosh ekrandan  OFF ni tanlang va keyin **Yoniq** ni tanlang.

☐ Windows

Printer drayverining **Asosiy** panelida **Sokin rejim** parametri sifatida **Yoniq**-ni tanlang.

☐ Mac OS

Apple menyusi > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash, Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiylar va ta'minotchilar** > **Opsiylar**-ni (yoki **Drayver**-ni) cherting. On parametri sifatida **Sokin rejim**-ni tanlang.

Negiz sertifikatini yangilash kerak

■ Negiz sertifikatini muddati o'tgan.

Yechimlar

Web Config-ni ishga tushiring va keyin negiz sertifikatini yangilang.

➔ ["Printer operatsiyalarini sozlash uchun ilova \(Web Config\)" - 279-sahifada](#)

Mac OS X v10.6.8 o'rnatilgan kompyuterdan chop qilishni bekor qilib bo'lmayapti

■ AirPrint bilan bog'liq muammo mavjud.

Yechimlar

Web Config-ni ishga tushiring va keyin **Port9100**-ni **AirPrint-ni o'rnatish**-dagi **Eng yuqori ustuvorlik protokoli** sifatida tanlang. Apple menyusi > **Printerlar va skanerlar** (yoki **Chop qilish va skanerlash, Chop qilish va faks**)-dan **Tizim afzalliklari**-ni tanlang, printerni o'chiring va keyin qaytadan qo'shing.

➔ ["Printer operatsiyalarini sozlash uchun ilova \(Web Config\)" - 279-sahifada](#)

Siyohni to'ldirgandan keyin ham siyoh darajasini asliga qaytarishni so'rovchi xabar aks ettiriladi

■ Siyoh darajasi asliga qaytarilmadi.

Yechimlar

Siyohni to'ldirgandan keyin siyoh darajasini asliga qaytarish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

➔ ["Siyoh darajasini asliga qaytarish yuzasidan eslatmalar" - 220-sahifada](#)

Siyohni to'ldirgandan keyin ham aks ettiriladigan siyoh darajasi o'zgarmaydi

■ Siyoh darajasi asliga qaytarilmadi.

Yechimlar

Siyohni to'ldirgandan keyin siyoh darajasini asliga qaytarish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

➔ ["Siyoh darajasini asliga qaytarish yuzasidan eslatmalar"](#) - 220-sahifada

LCD ekranda namoyish qilinadigan xabar

Agar LCD ekranda xatolik to'g'risida xabar namoyish qilinsa, muammoni yechish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga yoki quyidagi yechimlarga amal qiling.

Xatolik to'g'risidagi xabarlar	Yechim
IP manzil kombinatsiyasi va subtarmoq maskasi xato. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun hujjatni ko'ring.	To'g'ri IP-manzil yoki sukut bo'yicha shlyuzni kiriting. Yordam olish uchun tarmoqni o'rnatgan odamga murojaat qiling.
Chop qilish kallagini rostlash bekor qilindi. Chop qilish kallagi bilan bog'liq muammo mavjud. Epson qo'llab-quvvatlash xizmati bilan bog'laning.	Agar soplone tekshirish va chop qilish kallaigini tozalashni 3 marta takrorlagandan keyin chop qilish sifati yaxshilanmasa, chop qilmasdan kamida 12 soat kuting va keyin soplone tekshirishni ishga tushiring va zarur hollarda kallakni tozalashni takrorlang. Biz  tugmasidan foydalanib printerni o'chirishni tavsiya qilamiz. Agar chop qilish sifati baribir yaxshilanmasa, Kuchli tozalash funksiyasini ishga tushiring. Agar Kuchli tozalash ni ishga tushirgandan keyin chop qilish sifati yaxshilanmasa, chop qilmasdan kamida 12 soat kuting, va keyin soplone tekshirish qismini yana chop qiling. Chop qilingan qismga qarab Chop etish kallagini tozala yoki Kuchli tozalash ni ishga tushuring. Agar sifat baribir yaxshilanmasa, Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.
Quyidagiga ruxsat bering yoki batafsil ma'lumot uchun foydalanuvchi qo'llanmasi bilan tanishib chiqing. Tasdiqlagandan keyin [Tushunarli]ni tanlang.	QR kodni skanerlay olmasangiz aqlli qurilmaga ulaning. Ko'proq ma'lumotlar olish uchun quyidagilarga qarang. "Aqlli qurilmalarga ulanish uchun parametrlarni belgilash" - 247-sahifada
Aloqa xatosi. Ulanishni tekshiring.	Kompyuter va printerni to'g'ri ulang. Agar tarmoq orqali ulayotgan bo'lsangiz, kompyuterda tarmoq ulanishini bayon qiluvchi sahifaga qarang. Agar xatolik to'g'risidagi xabar skanerlash vaqtida namoyish qilinsa, Epson ScanSmart-ning kompyuterga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. "Kompyuterga ulanish uchun parametrlarni belgilash" - 247-sahifada
Bulut xizmatlarini ishlatish uchun negiz sertifikatni yangilang.	Web Config-ni ishga tushiring va keyin negiz sertifikatini yangilang. "Web Config-ni veb-brauzerda ishga tushirish" - 279-sahifada

Xatolik to'g'risidagi xabarlar	Yechim
Bu xususiyatni ishlatish uchun kompyuterga Epson Event Manager dasturini o'rnatish. Tafsilotlari uchun yordamni o'qing.	Kompyuterga Epson ScanSmart dasturini o'rnatish. "Ilovalarni alohida o'rnatish" - 156-sahifada
Kompyuter topilmaganida quyidagilarni tekshiring. - Printer va kompyuter o'rtasidagi aloqa (USB yoki tarmoq) - Kerakli dasturiy ta'minot o'rnatilganligi - Kompyuter yoqilganligi - Fayrvol va xavfsizlik dasturi sozlamalari - Yana qidiring Tafsilotlari uchun yordamni o'qing.	Kompyuter to'g'ri ulanganligiga ishonch hosil qiling. "Ulanishi holatini tekshirish" - 172-sahifada "Ulanishi holatini tekshirish" - 180-sahifada Kompyuterda Epson ScanSmart o'rnatilgan bo'lsin. "Ilovalarni alohida o'rnatish" - 156-sahifada
Kompyuterga printer drayveri o'rnatilganini va printer uchun port sozlamalari to'g'ri ekanini tekshiring.	Printer menyusidagi Xususiyat > Port -dan printer portining to'g'ri tanlanganligiga quyidagicha ishonch hosil qiling. "USBXXX" USB orqali ulanish uchun, yoki tarmoqqa ulanib printer drayveri o'rnatilganda qo'yiladigan belgi uchun "EpsonNet Print Port" -ni tanlang.
Kompyuterga printer drayveri o'rnatilganini va printer uchun USB port sozlamalari to'g'ri ekanini tekshiring.	
Qog'ozni sozlash – O'chirilgan. Ayrim funksiyalar ishlamasligi mumkin. Tafsilotlar uchun jihoz hujjatlariga qarang.	Agar Qog'ozni sozlash o'chirilgan bo'lsa, AirPrint-dan foydalanib bo'lmaydi.
Qo'yilgan xotira qurilmasini ishlatib bo'lmaydi. Tafsilotlari uchun yordamni o'qing.	Mahsulot tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi xotira qurilmasidan foydalaning. "Xotira qurilmasining texnik xususiyatlari" - 293-sahifada
Chop etish bekor qilindi, chunki uzun qog'oz chop etish vaqti yarmida chiqarib tashlanishi mumkin. Qog'oz uzunligini 1300 mm dan qisqaroq qilib sozlang. Tafsilotlar uchun qo'llanmangiz bilan tanishing.	Yuqori haroratlar tufayli chop qilish uzoq vaqtni oladi va uzun qog'oz chop qilishning yarmida chiqailishi mumkin. ☐ U 1,3 m dan qisqaroq bo'lishi uchun qog'oz uzunligini o'rnatish. ☐ 32°C dan pastroq haroratda chop qiling.
Chop etish bekor qilindi, chunki uzun qog'oz chop etish vaqti yarmida chiqarib tashlanishi mumkin. Sifat ni Standart qilib sozlang. Tafsilotlar uchun qo'llanmangiz bilan tanishing.	Chop qilinadigan ma'lumotlarning kattaligi tufayli chop qilish uzoq vaqtni oladi va uzun qog'oz chop qilishning yarmida chiqailishi mumkin. Sifat ni Standart ga o'rnatish.
Printerdagi hoshiyasiz chop etish uchun siyoh yostiqchasining muddati tugadi. U siz almashtira oladigan qism emas. Epson ko'mak xizmatiga murojaat qiling.	Hoshiyasiz chop qilish siyoh yostiqchasini almashtirish uchun Epson vakolatli xizmat provayderiga murojaat qiling*. U foydalanuvchi tomonidan xizmat ko'rsatilishi mumkin bo'lgan qism emas. Hoshiyasiz chop qilishdan foydalanib bo'lmaydi, biroq hoshiya bilan chop qilishdan foydalanish mumkin. "Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish" - 301-sahifada
Printerdagi hoshiyasiz chop etish uchun siyoh yostiqchasining muddati tugamoqda. U siz almashtira oladigan qism emas. Epson ko'mak xizmatiga murojaat qiling.	Hoshiyasiz chop qilish siyoh yostiqchasini almashtirish uchun Epson vakolatli xizmat provayderiga murojaat qiling*. U foydalanuvchi tomonidan xizmat ko'rsatilishi mumkin bo'lgan qism emas. Chop etishni qayta boshlash uchun OK ga tegining. "Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish" - 301-sahifada

Xatolik to'g'risidagi xabarlar	Yechim
Printer xatosi Quvvatni qaytadan o'chirib yoqing. Agar muammo saqlanib qolsa, "Davom etish" tugmasini bosning.	Quyidagilarni bajaring. 1. Skaner qurilmasini oching va printer ichidagi ham qanday qog'oz yoki himoya materialini olib tashlang. Agar kir bo'lsa yarim shaffof plyonkani tozalang. "Tiqlilib qolgan qog'ozni olib tashlash" - 209-sahifada "Yarim shaffof plyonkani tozalash" - 149-sahifada 2. Skaner qurilmasini yoping, tokni o'chiring va qayta yoqing. Quvvat o'chirilganidan va qayta yoqilganidan keyin ham xatolik xabari yana namoyish qilinsa, Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling. "Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish" - 301-sahifada
Saqlash jarayonida xatolik yuz berdi. Tekshiring, agar zarur bo'lsa xotira qurilmasini o'zgartiring.	Xotira kartasi kabi tashqi xotira qurilmasi ishdan chiqishi mumkin. Qurilma ishlayotganini tekshiring. "Xotira qurilmasining texnik xususiyatlari" - 293-sahifada
Media tanilmadi. Media haqidagi tafsilotlar uchun yordamni o'qing	Mahsulot tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi xotira qurilmasidan foydalaning. "Xotira qurilmasining texnik xususiyatlari" - 293-sahifada
XXga quyidagi qog'ozni soldingizmi?	Chop qilish parametrlarini o'zgartiring yoki qog'oz kasetasidagi chop qilish sozlamalariga mos keluvchi qog'oz soling va keyin qog'oz sozlamalarini o'zgartiring. Agar keyingi safar bu xabarning ko'rsatilishini xohlamsangiz, Sozlamalar > Yo'naltirgich funksiyalari ni tanlang va keyin Qog'oz mos emas ni O'ch ga o'rnatning.
Recovery Mode Update Firmware	Mikrodastur yangilanishi xatolikka uchraganligi tufayli printer qayta tiklash rejimini ishga tushirdi. Mikrodastur yangilanishiga qaytadan urinish uchun quyidagi qadamlarga amal qiling. 1. Kompyuter va printerni USB kabeli bilan ulang. (Qayta tiklash rejimida mikrodasturni tarmoq ulanishi orqali yangilay olmaysiz.) 2. Batafsil ko'rsatmalar olish uchun mahalliy Epson veb-saytiga tashrif buyuring.

* Ayrim chop qilish sikllarida oz miqdordagi ortiqcha hoshiyasiz chop qilish siyoh yostiqlasiga to'planishi mumkin. Yostiqlachadan siyoh oqishining oldini olish uchun mahsulot yostiqlachaning so'rish qobiliyati o'z limitiga yetganda hoshiyasiz chop qilishni to'xtatadigan tarzda loyihalangan. Buning talab qilinishi yoki qilinmasligi va qanchalik tez-tez talab qilinishi hoshiyasiz chop qilish usulidan foydalanib chop qilishlar soniga bog'liq ravishda o'zgaradi. Yostiqlachani almashtirish kerakligi printerning o'zining texnik xususiyatlariga ko'ra ishlashdan to'xtaganligini anglatmaydi. Yostiqlachani almashtirish talab qilingan hollarda printer sizni ogohlantiradi va bu faqat Epsonning vakolatli xizmat provayderi tomonidan bajarilishi mumkin. Epson kafolati buni almashtirish harajatlarini qamrab olmaydi.

Qog'oz tiqilib qoldi

Tiqilib qolgan qog'oz, jumladan har qanday yirtilgan bo'laklarini olib tashlash uchun boshqaruv panelida namoyish qilingan xatolikni tekshiring va ko'rsatmalarga amal qiling. Keyin xatolikni tozalang. LCD ekranida tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash usuli ko'rsatiladi.



Diqqat:

Qo'lingiz printerning ichida bo'lgan vaqtda boshqaruv panelidagi tugmalarga tegmang. Agar printer ishlay boshlasa, bu jarohatlanishga olib kelishi mumkin. Jarohatlanishning oldini olish uchun turtib chiqqan qismlarga tegib ketmaslikka harakat qiling.



Muhim:

Tiqilib qolgan qog'ozni ehtiyotlik bilan oling. Qog'ozni jadallik bilan olish printerga shikast yetkazishi mumkin.


Tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash




Diqqat:

- ❑ *Skanner qurilmasi qopqog'ini ochganda yoki yopganda qo'llaringiz yoki barmoqlaringizni qisib olmaslik uchun ehtiyot bo'ling. Aks holda jarohat olishingiz mumkin.*
- ❑ *Qo'lingiz printerning ichida bo'lgan vaqtda boshqaruv panelidagi tugmalarga tegmang. Agar printer ishlay boshlasa, bu jarohatlanishga olib kelishi mumkin. Jarohatlanishning oldini olish uchun turtib chiqqan qismlarga tegib ketmaslikka harakat qiling.*


1. Qog'oz tayanchini uzaytiring va uni orqaga qiyshaytiring.




2. Orqa qopqoqni chiqarib oling.



3. Tiqilib qolgan qog'ozni oling.




4. Orqa qopqoqdan tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlang.




! Muhim:


Quyidagi rasmda ko'rsatilgan qismlarga tegmang. Aks holda ularga shikast yetishi mumkin.



5. Orqa qopqoqni printeriga soling.
6. Agar hujjat qopqog'i ochiq bo'lsa, uni yoping.
7. Skaner qurilmasini ikkala qo'lingiz bilan u qulflangunicha oching.




8. Tiqilib qolgan qog'ozni oling.




! Muhim:

Printer ichidagi oq yassi kabel, yarim shaffof plyonka va tashish qulflariga tegmang. Bunday qilish printerning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.



9. Skaner qurilmasini yoping.




Eslatma:

Skaner qurilmasi barmoqlarni qisib qolishning oldini olish chorasi sifatida sekin yopilish va kamroq qarshilik qilishga mo'ljallangan. Hattoki biroq qarshilikni his qilsangiz ham yopishni davom ettiring.


10. Chiqarish lotogini yoping.

11. Qog'oz kassetasini tortib chiqaring.


2-qog'oz kassetasi uchun qurilmasini sal yuqoriga ko'taring va uni tortib chiqaring.



12. Tiqilib qolgan qog'ozni oling.



13. Qog'oz chetlarini tekislang va chekkalar yo'naltirgichlarini qog'oz chetlariga suring.



14. Qog'oz kassetasini printeriga soling.

Qog'oz tiqilib qolishidan saqlash

Qog'oz tiqilib qolishi tez-tez ro'y berib tursa quyidagini tekshiring.

- ☐ Printerni tekis sirtga joylashtiring va undan tavsiya qilingan atrof-muhit sharoitlarida foydalaning.
["Foydalanish va saqlash sharoitlari" - 296-sahifada](#)
- ☐ Ushbu printer tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qog'ozdan foydalaning.
["Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar" - 266-sahifada](#)
- ☐ Qog'oz bilan muomala qilish ehtiyot choralariga amal qiling.
["Qog'oz bilan muomala qilishdagi ehtiyot choralar" - 35-sahifada](#)
- ☐ Qog'ozni to'g'ri yo'nalishda soling va qirra yo'naltirgichini qog'oz qirralariga qarama-qarshi yo'nalishda suring.
["Qog'ozni yuklash" - 38-sahifada](#)
- ☐ Qog'oz uchun belgilangan maksimal varaqlar sonidan ortiq qog'oz joylashtirmang.
- ☐ Agar bir nechta qog'oz solish kerak bo'lsa, qog'oz varaqlarini bittalab soling.
- ☐ Qog'oz o'lchami va qog'oz turi sozlamalari printeriga solingan qog'oz o'lchami va turiga mos kelsin.
["Qog'oz turlari ro'yxati" - 37-sahifada](#)
- ☐ Printer ichidagi rolikni tozalang.
["Qog'oz uzatish muammolarini yaxshilash" - 138-sahifada](#)

Siyoh to'ldirish vaqtidir

Siyoh butilkalari bilan ishlashdagi ehtiyot choralari

Siyoh bilan to'ldirishdan avval quyidagi ko'rsatmalarni o'qib chiqing.

Siyohni saqlash bo'yicha ehtiyotkorlik choralari

- ☐ Siyoh butilkalarini to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ta'siridan saqlang.
- ☐ Siyoh butilkalarini baland yoki muzlatuvchi haroratlarda saqlamang.
- ☐ Epson siyoh butilkalaridan qadog'ida ko'rsaatilgan sanadan avval foydalanishni tavsiya qiladi.
- ☐ Siyoh butilkasini saqlashda yoki tashishda butilkani qiyshaytirmang va uni turli ta'sirlar yoki harorat o'zgarishlari muhitiga qo'ymang. Aks holda xattoki butilka qopqog'i mahkam yopilgan bo'lsa ham siyoh oqib ketishi mumkin. Qopqoqni qotirayotgan vaqtda siyoh butilkasini tik bo'lishiga ishonch hosil qiling va butilkani tashiganda, masalan, uni sumka ichiga solganda, siyohning oqib ketishining oldini olish choralari ko'ring.
- ☐ Siyoh butilkasini sovuq saqlash joyidan ichkariga keltirgandan keyin undan foydalanishdan avval uni xona haroratigacha isitish uchun kamida uch soat kuting.
- ☐ Siyoh bakini to'ldirishga tayyor bo'lmaguningizcha siyoh butilka qadog'ini ochmang. Uning ishonchligini ta'minlash uchun siyoh butilkalari vakuumli ravishda qadoqlangan. Agar undan foydalanishdan avval siyoh butilkasini qadoqlanmagan holda uzoq vaqt qodirangiz, chop qilish me'yorida bo'lmasligi mumkin.
- ☐ Siyoh butilkasini ochganingizdan so'ng, imkon qadar tez muddatda uni ishlatib yuborishni tavsiya qilamiz.

Siyohni to'ldirish vaqtidagi ehtiyotkorlik choralari

- ☐ Chop qilishning oliy sifatini ta'minlash va chop qilish golovkasini himoya qilishda yordam berish uchun printer bakni to'ldirish kerakligini ko'rsatganda o'zgaruvchan siyoh zahirasi bak ichida qoladi. Sizga keltirilgan ma'lumotlar bu zahirani o'z ichiga olmaydi.
- ☐ Chop qilish natijalari optimal bo'lishi uchun uzoq muddat davomida siyoh darajasi past bo'lishiga yo'l qo'ymang.
- ☐ Bu printer uchun to'g'ri qism kodiga ega bo'lgan siyoh butilkalaridan foydalaning.
- ☐ Bu printer uchun siyoh bilan ehtiyotlik bilan muomala qilish kerak. Baklar siyoh bilan to'ldirilganda yoki to'ldirilayotganda siyoh sachrab ketishi mumkin. Agar siyoh kiyimlaringizga yoki buyumlaringizga tegsa, u ketmasligi mumkin.
- ☐ Siyoh butilkalarini juda qattiq silkitmang yoki siqmang.
- ☐ Siyoh darajasi quyi chiziqdan past bo'lgan holda printerdan uzoq foydalanish printerni shikastlashi mumkin. Printer ishlamayotgan paytda siyoh idishini yuqori chizig'igacha to'ldirib qo'ying. Siyoh darajasi to'g'ri ko'rsatilishi uchun, siyohdonni to'ldirgandan so'ng siyoh darajasini qayta sozlang.
- ☐ Eng yaxshi natijaga ega bo'lish uchun eng kamida yiliga bir marta siyoh idishlarini yuqori chiziqqacha to'ldiring.


Siyoh sarfi

- ☐ Chop qilish golovkasining optimal darajada ishlashini ta'minlash uchun barcha siyoh baklaridagi siyohlar nafaqat chop qilish davomida, balki texnik xizmat ko'rsatish, masalan, chop qilish golovkasini tozalaganda ham ishlatiladi. Siyoh printerni yoqqaningizda ham sarhlanishi mumkin.


- ❑ Monoxrom yoki kulrang rejimda chop qilganda qog'oz turi yoki chop qilish sifati parametrlariga bog'liq ravishda qora siyoh o'rniga rangli siyohlardan foydalanish mumkin. Bu qora rangni olish uchun rangli siyohlar aralashmasidan foydalanilishi tufaylidir.
- ❑ Printer bilan birga berilgan siyoh butilkalaridagi siyohdan dastlabki o'rnatish vaqtida qisman foydalaniladi. Yuqori sifatli chop qilishlarni ta'minlash maqsadida printerning chop qilish golovkasi siyoh bilan to'liq to'ldirib olinadi. Bu bir martalik jarayon ma'lum miqdordagi siyoh iste'mol qiladi va shuning uchun bu siyoh butilkalari keyingi siyoh butilkalariga qaraganda kamroq sahifaga yetishi mumkin.
- ❑ Ko'rsatilgan chop qilinadigan sahifalar soni chop qilinayotgan tasvirlar, chop qilishda foydalanilayotgan qog'oz turi, chop qilishdan qanchalik ko'p foydalanilishi va harorat kabi atrof-muhit sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.
- ❑ Siyoh idishlaridagi siyoh darajasini ko'z bilan tekshirib turing. Siyoh tugagan holda printerdan davomli foydalanish printerni shikastlashi mumkin. Epson siyoh darajalarini qaytadan o'rnatish uchun printer ishlamayotgan vaqtda barcha siyoh idishlarini yuqori chiziqqacha to'ldirishni tavsiya qiladi.

Siyoh baklarini siyoh bilan qayta to'ldirish

1. Agar hujjat qopqog'i ochiq bo'lsa, uni yoping.
2. Skaner blokini ikkala qo'lingiz bilan u qulflangunicha oching.




3. Siyoh idishi qopqog'ini oching.



Siyoh to'ldirish uchun ekranda foydalanish bo'yicha ehtiyot choralari o'qing va keyin keyingi ekranga o'ting.


4. Siyohdonning qopqoqchasini oching.



Muhim:

Siyoh baki rangining to'ldirmoqchi bo'lgan siyoh rangi bilan bir xil ekanligiga ishonch hosil qiling.


5. Siyoh butilkasini tik tutgan holda, u qopqoqchani chiqarish uchun sekin burang.



Muhim:

- ☐ *Epson haqiqiy Epson siyoh butilkalaridan foydalanishni tavsiya qiladi.*
- ☐ *Siyohni sachratib yubormaslik uchun ehtiyot bo'ling.*


6. Siyoh idishidagi (a) yuqori chiziqni tekshiring.



7. Siyoh butilkasining yuqori qismini to'ldirish porti bilan tenglashtiring va keyin yuqori chiziqqa yetganida u avtomatik tarzda to'xtaguncha siyoh to'ldirish uchun uni portga to'g'ri kiring.

